

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O`zbek tili va adabiyoti kafedrası**

**5120100-filologiya o`zbek tili yo`nalishi 401-guruh talabasi**

**JO`RAYEVA DULNOZAXON SADRIDDINOVNANING**

**bakalavr darajasini olish uchun yozgan**

**“ROBINDRANATH THOKUR HIKOYALARIDA OZODLIK RUHINING  
IFODALANISHI”**

**MAVZUSIDA BITIRUV-MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: Mo`minjon SULAYMONOV

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Namangan – 2016**

Reja:

So`zboshi

Mavzuning dolzarbligi.

Mavzunung o`rganilish darajasi.

Mavzuning o`rganish manbalari

Bitiruv-malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

Bitiruv-malakaviy ishning maqsadi hamda vazifalari.

Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi.

I - bob. Robindranath Thakur tarixiy hikoyalarida milliy ozodlik g'oyalarining ifodalanishi.

1. 1. Respublikamiz Prezidenti I. Karimov adabiyot haqida.

1.2. Robindranath Thakur - Hindiston mustaqilligi kuychisi.

1.3. Robindranath Thakur – Hindiston madhiyasining muallifi.

II bob. Robindranath Thakurning Hindiston ozodligi uchun kurashi.

2. 1. Robindranath Thakur – ma'rifatparvar.

2. 2. Xususiy maktablar va universitetning ochilishi.

2. 3. Darslik va qo'llanmalarning yaratilishi.

III bob. Robindranath Thakur ijodini ta'lim tizimida o`rganilishi.

3.1. Robindranath Thakur ijodini o`rta umumta'lim tizimida o`rganish.

3.2. Robindranath Thakur ijodini akademik litsey va kasb-funar kollejlarida o`rganish.

3. 3. Robindranath Thakur o`rganishda noan'anaviy usullardan foydalanish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxat:

## So`zboshi

### Mavzuning dolzarbligi.

Mustaqillik yillarida adabiyot masalasi bizning yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Avvalo, o`zbek adabiyotini har tomonlama o`rganish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Qolaversa, jahon xalqlarining mashhur adiblarining asarlarini o`rganish, o`zbekcha trajima qilish sohasida juda ko`p xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada ham boshqa sohalarda bo`lgani kabi shaxsan Prezidentimiz Islom Karimov o`zlari tashabbuskor va tashkilotchi bo`lmoqdalar. I. Karimovning “Adabiyotga e`tibor, - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor” asarida, o`zbek tilida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari bilan birga jahon adabiyotining durdona namunalari o`rganish masalalari kun tartibidagi jiddiy muammolardan biri sifatida ta`kidlangan<sup>1</sup>.

Sharq xalqlari adabiyoti, jumladan, Hind adabiyoti namunalari ruhan va mazmunan bizning xalqimizga yaqin turadi. Bu o`rinda mashhur Hind adibi Robindranath Thokur nomini alohida eslash joizdir. Robindranath Thokur ijodi o`tgan XX asrda xalqimizning eng sevib o`qiladigan kitoblariga aylanib qolgan edi. Bir necha mahoratli tarjimonlarning fidokorona mehnati tufayli Robindranath Thokur asarlari o`zbek tiliga tarjima qilingan, hamda sakkiz jild holida chop etilgan edi<sup>2</sup>.

O`zbek kitobxonlari adib Robindranath Thokurning deyarli hamma mashhur asarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`lganlar. Shunisi ham diqqatga sazovorki, Robindranath Thokurning “Halokat” romani asosida o`zbek kino ustalari “Gang daryosining qizi” nomli badiiy filmni ishlaganlar.

Aytish mumkinki, chet ellik boshqa bir yozuvchining asarlari 8 jildlik holida chop etilmagan edi. Hind adabiyoti, xususan olganda, Robindranath Thokur adabiy merosi xalqimiz qalbiga juda ham yaqinligini yuqoridagi fikrlardan ham bilib olishimiz mumkin.

Mashhur adib sifatida jahon adabiyotining taraqqiyotiga munosib hissa

---

<sup>1</sup> Karimov I.A “Adabiyotga e`tibor- ma`naviyatga, kelajakka e`tibor”. -Toshkent “O`zbekiston” 2009-yil 29-30 -bet

<sup>2</sup> Тагор Р. Асарлар. 8 жилдлик. 1-8- жилдлар. – Тошкент.:

qo`shgan Robindranath Thokurning ko`plab asarlari Hind va Bengal xalqlarining ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik kurashini tasvirlashga bag'ishlanganligi bilan xarakterlidir. Mana shu jihatlari ulug' adib asarlarini o`zbek kitobxonlari o`rtasida keng ommalashishiga ham sabab bo`lgan.

Robindranath Thokur asarlarida milliy-ozodlik g'oyalarining ifodalanishi masalasi hozirga qadar adabiyotshunosligimizda maxsus tadqiqot sifatida o`rganilgan emas. Shu sababli ham Gulnoza Jo`rayevaning mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi dolzarblik kasb etadi.

### **Mavzuning o`rganilish darajasi**

Robindranath Thokur asarlari tahliliga oid dastlabki tadqiqotlar XX asr boshlarida hassos ijodkorlar Cho`lpon, Abdurauf Fitrat tomonidan amalga oshirilgan. Kyingi tadqiqotlar esa To`xtasin Jalolov faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Toshkent davlat sharqshunoshlik institutining hindiyshunos olimlari tomonidan ham Robindranath Thokur ijodiga oid tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida Robindranath Thokur asarlari umumiy o`rta ta'lim maktablarining adabiyot darsliklariga kiritildi. Amaldagi 8-sinflarning "Adabiyot" darsligida Robindranath Thokurning "Nur va soyalar" hikoyasi joy olgan<sup>3</sup>. Mana shu hikoyani o`rganish bilan bog'liq metodik maqolalar ham e`lon qilindi.

### **Mavzuning o`rganish manbaalari**

Mazkur bitiruv-malakaviy ishning mazmunini yoritish uchun Robindranath Thokurning o`zbek tilida nashr etilgan sakkiz tomlijk asarlarini hamda keyingi yillarda chop etilgan alohida to`plamlarini, shuningdek, umumiy o`rta ta'lim maktablari Adabiyot darsliklarini asosiy o`rganish manbalari qilib oldik. Bulardan tashqari Robindranath Thokur asarlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan uslubiy, ilmiy-ommabop manbalardan ham foydalandik.

---

<sup>3</sup> Adabiyot. Umumiy o`rta ta'lim maktablari 8-sinflari uchun darslik.

### **Bitiruv- malakaviy ishning ilmiy yangiligi**

Robindranath Thokur asarlarida milliy-ozodlik g'oyalarining ifodalanishi birinchi marotaba maxsus o`rganilmoqda. Hind va bengal adabiyotining buyuk namoyondasi asarlarida chet ellik mustamlakachilarga qarshi milliy-ozodlik kurashi tasvirlangan asarlari, jumladan, hikoyalari atroflicha tahlil etildi. Ulardagi asosiy qahramonlar, qahramonlarga xos bo`lgan eng muhim xususiyatlar, asarlardagi obrazlarni yaratishga oid usullar haqida fikr-mulohazalar bayon qilindi.

### **Bitiruv - malakaviy ishining maqsad hamda vazifalari**

Bitiruv malakaviy ishining mazmunini yoritish uchun Robindranath Thokurning o`zbek tilida chop etilgan asarlarini sinchiklab o`rganish, ular orasidan milliy- ozodlik g'oyalari ifodalangan namunalarini ajratib olish. Aynan shu asarlarda ilgari surilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish, obrazlarga xos xususiyatlarni yoritish asosiy maqsad qilib olingan.

Bu maqsadga erishish uchun esa, quyidagi vazifalarni bajarish lozim deb hisoblaymiz:

- Robindranath Thokurning o`zbek tilida chop etilgan asarlarini puxta o`rganish;
- adibning milliy-ozodlik kurashi ulug'langan asarlarini ajratish;
- obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish;
- adibning badiiy mahoratini aniqlash;
- Robindranath Thokur asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- Yozuvchi asarlarining olamshumul qimmatining sabablarini yoritish.

### **Bitiruv- malakaviy ishining amaliy ahamiyati**

Mazkur bitiruv malakaviy ishning natija va xulosalaridan "Jahon va turkiy xalqlar adabiyoti", "Adabiy aloqalar" kabi kurslardan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash va o`tkazishda, o`quv va uslubiy qo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Bu jihatlar esa ishimizning **amaliy ahamiyatini** belgilaydi.

## **Bitiruv - malakaviy ishining tuzilishi**

Ushbu bitiruv malakaviy ish soʻz boshi, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan. Ish oxirida mavzu boʻyicha tayyorlangan ilovalar-slaydlar berilgan.

## **I-Bob. Robindranath Thokur tarixiy hikoyalarida milliy-ozodlik g'oyalarining ifodalanishi**

### **1.1.Prezident I.Karimov adabiyot haqida**

Yurtboshimiz Islom Karimov o`zbek adabiyotining rivojlanishi va taraqqiy etish yo`lida tinmay g'amxo`rlik qilib kelmoqda. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, Prezidentimiz o`zbek mumtoz adabiyoti vakillari va ularning asarlarini o`rganish haqida juda ko`p xayrli ishlarni amalga oshirdi. Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarimiz haqida fikrlar bunga misol bo`la oladi. Shuningdek, Yurtboshimizning qardosh xalqlar adabiyotining atoqli namoyondalari hamda mashhur namunalari o`rganish bo`yicha bildirgan fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovordir.

I.Karimovning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolasida jahon adabiyotining durdonalarini o`zbekchaga o`girish haqida ham fikrlar bildirganlar.

Ma'lumki, Mustaqillik yillarida bizning yurtimizda adabiyot masalasi davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Buning asosiy sababi milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasiga alohida e'tibor qaratilganligi hamda adabiyot ana shu sohalarning ajralmas bir qismi ekanligi hisoblanadi. Darhaqiqat, Yurtboshimiz tashabbusi bilan hali yurtimiz istiqlolga erishmasdan burun 1991-yil "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilingan edi. 1991-yil 31-avgustda Mustaqillik e'lon qilingach, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlardan biri Til va adabiyot ilmiy tadqiqot institutiga Alisher Navoiy nomini berish haqidagi Farmon ham tarixiy hujjat sifatida qimmatlidir.

I.A. Karimovning "Alpomish" dostoniniang 1000 yillik hamda "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yillik yubileyida so`zlagan ma'ruzalari ham tarixiy qimmatga ega. Keyingi yillarda adabiyotimizning mashhur vakillariga Toshkent shahrida qo`yilgan haykallar: G'afur G'ulom, Zulfiya, Oybek, Said Ahmad va Saida Zununova haykallari. Alisher Navoiyga Moskva, Boku, Tokio, Kaliningrad shaharlarida o`rnatilgan haykallar haqiqatan ham adabiyotimizga, yurtimizga diqqat-e'tibor juda ulug'ligini ifodalaydigan faktor hisoblanadi.

Muhtaram yurtboshimiz “Adabiyotga e’tibor - ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” nomli risolasida ham adabiyotimizning bugungi kundagi taraqqiyoti hamda kelajakdagi ahvoli haqida bildirgan fikr-mulohazalari ham diqqatga molikdir. Zero, yurtboshimiz adabiyotimiz rivoji uchun doimo rahnamolik ko’rsatib keldilar va ko’rsatmoqdalar.

Adabiyot ahliga hurmat ehtirom ko’rsatish asli bizning yurtimizda azal – azaldan davlat siyosati darajasida bo’lib kelgan. Bu holat, ayniqsa, temuriylar davrida an’anaviy tus oldiki, bunga hozir dunyo ahli tan bermoqda.

O’zbekiston milliy mustaqilikka erishishi o’zbek xalqining mamlakat taraqqiyotidagi maqomini tubdan o’zgartirdi.

O’tgan davr mobaynida eski tuzumdan og’ir meros bo’lib qolgan turli illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish ko’hna qadriyatlarimiz din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo’lida xalqimizning ma’naviy yuksalishini o’z ildimizga qo’yg’an olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo’lib kelganini va bugun ham e’tiborimiz markazida turganini ta’kidlash lozim.

Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o’z oldimizga asosiy vazifa qilib qo’yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o’tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o’rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o’ziga xos urf-odatlar va an’analari, hayotiy qadriyatilardan ayri holda tasavvur etib bo’lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

O’zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g’oyat kuchli va samarali ta’sir ko’rsatgan ulug’ zotlardan biri – bu **Alisher Navoiy** bobomizdir. Biz uning mo’tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliги badiiy dahosi zamon va



makon chegaralarini bilmasligi haqida faxrlanib soʻz yuritimiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi millatimizning gʻururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum qilgan oʻlmas soʻz sanʼatkoridir. Taʼbir joiz boʻlsa, olamda turkiy va forsiy tilda soʻzlovchi biron-bir inson yoʻqki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va eʼtiqod bilan qaramasa. **“Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak desak, shoirlarning sultondir.”**<sup>4</sup>

Inson qalbining quvonch-u qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuygʻusi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosidan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik koʻp bahramand etsak, milliy maʼnaviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli maʼrifiy qurolga ega boʻlamiz.

Prezidentimizning yuqoridagi fikrlaridan Islom Karimovning xalq maʼnaviyatini yuksaltirish, bu yoʻlda avvalo, fan, sanʼat va adabiyotga chuqur eʼtibor bilan qarash va uning taraqqiy topishiga juda katta eʼtibor qaratayotganini anglaymiz. Bu eʼtibor yaqinda boshlangani yoʻq, balki yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk davridayoq prezidentimizning adabiyotga boʻlgan yuksak hurmati va eʼtiborini koʻramiz.

Darhaqiqat, 1991-yil Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Alisher Navoiy yili” deb eʼlon qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 19-sentabridagi qaroriga muvofiq oʻzbek adabiyotining asoschisi, buyuk olim, mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

---

<sup>4</sup> Karimov.I.A “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” –Toshkent “Maʼnaviyat”2008–yil 47–bet

adabiyot ilmgohiga Alisher Navoiy nomi berildi.

Prezidentimiz Islom Karimov O`zbekiston Milliy bog`ida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan barpo etilgan haykalning tantanali ochilish marosimida nutq so`zladi: “Hurmatli do`stlar! Avvalambor, ulug` bobomiz, milliy g`ururimiz, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy kunlarida qatnashib, shodligimizni baham ko`rayotganingiz uchun samimiy minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Mana salkam bir yildirki, O`zbekistonimizda, O`rta Osiyoda, barcha Sharq xalqlari tomonidan nishonlanayotgan Alisher Navoiyning, umr va ijod to`ylari–qutlug` ma`raka davom etmoqda. Bu to`y millat bayramidir. Qadriyatimizni yana bir bor ulug`laydigan bayramdir. Bu to`y xalqimiz O`zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi. Alisher Navoiy yili deb e`lon qilingan 1991-yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug` keldi, unutilmas sana bo`lib qoldi. O`z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta, porloq bo`ladi. Ishonamizki, O`zbekistonimiz tez orada dunyo hamdo`stligi o`rtasida o`ziga munosib o`rinni egallaydi. Ana o`shanda ham Alisher Navoiyning qutlug` nomi bizga madadkor bo`ladi. Bu ko`shk, bu haykal, bu so`lim bog` hammamizga muborak bo`lsin, aziz do`stlar !

O`zbek xalqimizning ulug` siymosi Alisher Navoiy nomidek abadulabad saqlansin, obod bo`lsin.<sup>5</sup>

Demak, buyuk ajdodlarimizga, ma`naviy merosimizga, milliy adabiyotimizga bo`lgan e`tibor kecha yo bugun, boshlangani yo`q, balki avval-boshdan adabiyotimizga yuksak hurmat va e`tibor bilan qaralgan. Shuning uchun boy ma`naviy merosimiz boshqa xalqlar tomonidan ham tan olinmoqda va hurmat ko`rsatilmoqda. Shu ma`noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarmizning so`nmas dahosiga hurmat-ehтиrom, ularning boy ilmiy merosini o`rganishga bo`lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig`ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e`lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug` ajdodlarimiz

---

<sup>5</sup> Karimov.I.A “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”–Tosheket “O`zbekiston”2011–yil 401–403–bet

xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko`rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug`bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg`oniy xotirasiga o`rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz. Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo`lgan ana shunday ilmiy, ma`naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, “Oqqan daryo oqaveradi”, degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u ma`rifat va yuksak ma`naviyatga intilish hech qachon to`xtamaganini, xalqimiz dahosining o`lmas timsoli sifatida eng og`ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo`lib kelganini ko`rishimiz mumkin.

Masalan, Chorizm mustamlakasi davrida ma`rifat g`oyasini baland ko`tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo`la oladi. Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is`hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho`lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma`rifatparvar, fidoyi insonlarning o`z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o`chmaydi. Ana shunday ulug` ajdodlarimizning ilmiy ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorumizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullayev va Sa`di Sirojiddinov, Obid Sodiq va Sobir Yunusov, Yaxyo G`ulomov va Bo`riboy Ahmedov, Oybek va G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo`jayev, Razzoq Hamroyev va boshqa ko`plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarning yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo`lib xizmat qiladi. Biz shoir deganda, avvalo, Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o`z xalqi uchun nafaqat noyob iste`dodi, ayni paytda butun hayotini bag`ishlagan buyuk va mo`tabar insonlarni tasavvur etamiz.

Bir so`z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug` bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o`zi el-yurtimiz hayotida bu soha

namoyondalariga, ularning haqqoniy soʻzi, chuqur maʼnoli asarlariga ishonch hurmat-eʼtibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga koʻtarilganini yaqqol koʻrsatib turibdi.

Hech shubhasiz, ziyolilarning ilgʻor qismi boʻlmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi oʻrni va taʼsiri beqiyosdir.

Eng muhimi, yozuvchilarimiz oʻtish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, oʻz ijodiga, qalb amri bilan tanlagan kasbiga sodiq qolib, milliy oʻzligimizni anglash, xalqimiz ong-u tafakkurini oʻzgartirish, maʼnaviy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish yoʻlida xizmat qilib kelayotganini taʼkidlash har tomonlama toʻgʻri boʻladi.

Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida boʻlayotgan oʻzgarishlarni hammadan avval sezib, ularni taʼsirchan obrazlar, yorqin badiiy boʻyoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar deb bilamiz.

Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va maʼnaviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari koʻrmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini oʻylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bagʻrikenglikka daʼvat etishga qaratilgan haroratli soʻzi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yaʼni, yozuvchi “Ey odamzod, koʻzingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib boʻlish uchun nima qilyapsan?” degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qatʼiy qilib qoʻya olsagina, oʻylaymanki, oʻzining insoniy va ijodiy burchini bajargan boʻladi.

Adiblarimiz aynan mana shunday masalalar ustida bugungi kunda ularning soʻzi xalq qalbidagi qanday aks-sado berayotgani haqida yana bir bor

o`ylab ko`rishlarini istardim. To`g`risini aytadigan bo`lsak, yoshlar bugun axborot va ma`lumotlarni asosan Internet orqali olyapti, dunyoni televideniya, kompyuter orqali taniyapti. Ota-onasi, o`qituvchilari ming targ`ib va tashviq qilmasin, bugungi yoshlar “O`tkan kunlar”, “Urush va tinchlik” kabi mumtoz romanlarni yoppasiga o`qiyapti, deb ayta olamizmi? Modomiki, shunday ekan, endi odamlar, yoshlar kitob o`qimay qo`ydi, deb faqat nolib o`tirmasdan, o`zbek tilidagi Internet adabiyotini shakllantirish, shoir va yozuvchilarimizning o`z veb-saytlariga ega bo`lishiga erishish nafaqat, adabiy jarayonga, kerak bo`lsa, butun ma`naviy-ma`rifiy hayotimizga kuchli ta`sir o`tkazishini yaxshi tushunamiz. Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste`doddir. Bu – qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o`qitib, o`rgatib bo`lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo`lsa, bir umr hayotning ichida bo`lish, o`z xalqi bilan hamdard-u hamnafas bo`lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir.<sup>6</sup>

Shu o`rinda yana bir fikrga alohida to`xtalib o`tmoqchiman. Chinakam ijod va iste`dod mahsuli bo`lgan asarlarni, yozuvchining yuragidan, qalbidan chiqqan haqqoniy va ta`sirchan fikrlarni keng ommaga yetkazish uchun barcha mavjud vositalardan unumli foydalanish zarur. Deylik, eski davrda bo`lganidek, yozuvchi nashriyot uchun xizmat qilishiga chek qo`yish lozim, deydi Yurtboshimiz I.A Karimov o`zining adabiyot haqidagi fikrlarida.

Kerak bo`lsa, nashriyotlar ham, teatrlar ham, radio-televedeniya, kinostudiyalar ham yozuvchi va shoirlarning ijodini jamoatchilikka, o`quvchi va tomoshabinlarga yetkazish, ular bilan hamkorlik qilishdan, ularga yanada kengroq minbar berishdan manfaatdor bo`lishi lozim. Chunki bu ijod turlarining ham tag-zaminida birinchi navbatda adabiyot, so`z san`ati turishi hech kimga sir emas. Ijodiy jarayonning, adabiyotning asosiy bunyodkori – bu yozuvchi va shoirlardir. Lekin bu ishni faqat ularning yelkasiga tashlab qo`ymasdan, jamoatchilik, butun jamiyatimiz unga o`z hissasini qo`shishi kerak.

---

<sup>6</sup> Karimov I.A “Adabiyotga e`tibor–ma`naviyatga, kelajakka e`tibor”– Toshkent “O`zbekiston”2009–yil 17–18–bet

Bugungi kunda iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chuqur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini butun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda.

“Iste'dod, iste'dod va iste'dod sohiblarini topish, tarbiyalash va ularning mehnatini munosib qadrlash eng asosiy vazifamizga aylanishi zarur. Yosh adib va shoirlar, adabiy tanqidchilarning har biri o'z asarlari bilan adabiy jamoatchilik nazaridan, ijodiy tanlovlar jiddiy taqrizlardan o'tib, tegishli e'tirofga sazovor bo'lib, shundan keyingina adabiyot maydoniga kirish lozim.

Buning uchun nafaqat markazda, balki joylarda ham faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy to'garak va seminarlarning ish samarasini oshirish, bahs-munozaralar, mushoiralar, fikr almashuvlar, shu bilan birga, ustoz yozuvchi va shoirlarning mahorat maktabini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar olib borishni kuchaytirish darkor. Yosh ijodkorlar o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlarda qatnashayotgan qalamkashlar orasidan eng yaxshi iste'dod egalarini tanlab olishda Yozuvchilar uyushmasi asosiy tashabbuskor bo'lishi, bu ishlarni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati bilan birgalikda amalga oshirishi zarur.

Yosh iste'dodlarni aynan ana shunday talablar asosida kamol toptirish ularning adabiyot olamida o'z munosib o'rnini egallashini ta'minlash uchun Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Yosh ijodkorlar bilan ishlash kengashining faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish va yangicha asosda qayta tashkil etish lozim.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk ijodkorlarni, buyuk shoirlarni, buyuk yozuvchilarni tarbiyalashimiz lozim. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa - millat yashaydi.

Mana shunday ulkan va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda jonkuyar va fidoyi adiblarimiz o'zbek adabiyotning muqaddas an'analariga sadoqatli bo'lib, ularni munosib davom ettirgan holda ijod qiladilar va yangi-

yangi go`zal asarlar bilan xalqimizni xushnud etadilar, deb ishonaman.”<sup>7</sup>

Demak, istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma`noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirayotgan ekan, prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma`naviyat masalasiga eng muhim va ustuvor yo`nalish sifatida katta ahamiyat berib kelinayotgani bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning adabiyotga e`tibor ma`naviyatga, kelajakka e`tibor ekanini alohida ta`kidlab, adabiyotimizning bugungi kuni va ertangi istiqboli xususida qayg`urib milliy adabiyotimizni yuksak darajaga ko`tarayotgani, bu borada amaliy ishlar samaradorligini oshirish to`g`risidagi turli qarorlari bizni quvontiradi.

Islom Karimov tomonidan yosh iste`dodlarga ko`rsatilayotgan e`tibor, ularni har tomonlama rag`batlantirish, joylarda turli xil tanlovlar, adabiy kechalar va tadbirlar o`tkazish, Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Yosh ijodkorlar bilan ishlash kengashining faoliyatini yangicha asosda qayta tashkil etilishi va iste`dodlarning ilk kitoblari shu tashkilot fondi tomonidan chop etib berilishi yurtimizda yoshlarga bo`lgan e`tiborning naqadar kuchli ekanini yana bir bor isbotlaydi.

## **1.2. Robindranath Thokur - Hindiston mustaqilligi kuychisi**

Har qanday adibning ijodi, eng avvalo, yurtini qay darajada kuylay olganligi bilan belgilanadi deyish mumkin. Darhaqiqat, o`z yurtini sevmagan, uni asarlarida madh etmagan ijodkorni haqiqiy ijodkor deb aytish mumkin emas. Adabiyot tarixida vatanparvar ijodkorlar juda katta tarixiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlar yaratib, dunyoga mashhur bo`lganlar. Vatanparvarlik ruhida qalam tebratgan adiblarning asarlarida chet ellik bosqinchilarga qarshi kurash g`oyalari manaman deb ko`zga tashlanib turadi.

Robindranath Thokur ham o`z asarlarida yurt ozodligini, mustaqilligini orzu qilgan ijodkorlar qatorida turadi. U tavallud topgan paytda (1861-yilda) Hindiston Buyuk Britaniyaning kaloniyasi-mustamlakasi edi. Robindranath

---

<sup>7</sup> Karimov I.A “Adabiyotga e`tibor- ma`naviyatga, kelajakka e`tibor”. -Toshkent “O`zbekiston” 2009-yil 29-30 -bet

Thokur boy va obro`li xonadonda dunyoga kelganligi uchun yaxshi ta`lim-tarbiya oldi. O`z zamonasining eng yaxshi bilim yurtlarida tahsil oldi. Eng ilg`or mamlakatlar tarixini yaxshi o`rgandi. Ingliz tilini juda yaxshi o`zlashtirdi. O`zi yozgan she`rlarini o`zi ingliz tiliga tarjiam qildi. Alohida to`plam holida nashr ettirdi. Millatni mustamlaka zulmidan ozod qilish uchun uni ilm-ma`rifatli qilish kerak degan xulosaga keldi. Bu fikrni oqilona amalga oshirish maqsadida juda ko`p kuch-qudrat va mablag`ini sarf qildi.

Robindranath Thokur, avvalo, eskicha o`qitish usullaridan voz kechishni hamda zamonaviy, yangicha usullarda ta`lim-tarbiya berish tarafdori bo`lib maydonga chiqdi. Tabiiyki, ikki tomonlama zulm ostida, ham mahalliy, ham mustamlakachi hukmdorlar tomonidan ezilayotgan hind xalqi o`ta qashshoq va kambag`al yashar edi. Shuning uchun aholi o`z farzandlarini o`qita olmasdi ham.

Robindranath Thokur o`z hisobidan boshlang`ich maktablar, kollej va litseylar tashkil qildi. Keyinchalik u asos solgan ta`lim muassasasi negizida birinchi milliy universitet ham tashkil etildi. Robindranath Thokur o`zi tashkil qilgan maktablar uchun darslik va qo`llanmalar yozib, nashr qildirdi. Bolalar uchun "O`qish" kitoblarini chop ettirdi.

Bu xayrli ishlarning hammasini o`zining mablag`i hisobidan amalga oshirganligi diqqatga sazovordir. Robindranath Thokur Hindistonda ma`rifatchilik g`oyalarini amalga oshirish uchun ham nazariy, ham amaliy ishlar qildi. O`zi bu sohada shaxsiy namuna ko`rsatdi.

Ulug` hind adibi, shoir, faylasuf, jamoat arbobi, ma`rifatparvar, gumanist va otashin vatanparvar Robindranath Thokur 1861-yil 7-mayda Bengaliyaning poytaxti Kalkutta shaharida tug`ildi.

Thokurlar avlodidan Bengaliyaning ko`pgina jamoat va madaniyat arboblari yetishib chiqqan edi. Yozuvchining bobosi Dvarakanath XIX asr boshlarida yashagan ulug` hind ma`rifatparvari Ram Moxan Royning safdoshi edi. Roy 1828-yilda o`z zamonasida ancha taraqqiyparvar rol o`ynagan diniy «Braxmo Samaj» jamiyatini tuzib, butparastlik, tangrilarga



qurbon berish va o`rta asr induizm xurtofotlariga qarshi kurash boshladi. Yozuvchining otasi Debendronath Thokur esa, bu tashkilotning ko`zga ko`ringan namoyandalaridan biri edi. Yozuvchining aka va opalari ham g`oyat zakovatli va teran ma`lumotli odamlar edilar. Shoirning katta akasi Dvijendrolal faylasuf va shoir bo`lsa, o`rtancha akasi Jotirindronatx yozuvchi va havaskor artist edi.

Thokur «Xitoydagi suhbatlar» kitobida o`z dunyoqarashining shakllanishiga sabab bo`lgan uch omil to`g`risida so`zlaydi. Bularning birinchisi XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan ulug` hind yozuvchisi Bonkim Chandro Chottopadxayya (1838-1894) ijodiyotidirki, uning asosiy mohiyati chuqur vatanparvarlik tuyg`usi va milliy iftixor hissini uyg`otishga intilishdan iborat edi; ikkinchi omil - «Braxmo Samaj» jamiyati faoliyatiga asos bo`lgan g`oyalardir; uchinchi omil - mamlakatdagi milliy ozodlik harakatining rivojlanishidir, bu esa oqibatda 1885-yili Hind Milliy kongress partiyasining tashkil topishiga olib keldi.

Bunga yana shuni ham qo`shish lozimki, Thokur ko`p asrlik an`anaga ega bo`lgan g`oyat boy Hind adabiyogini, ayniqsa, o`z vatani Bengaliya adabiyotini juda yaxshi bilar, shu bilan birga u xalq ijodiyotini chuqur o`rgangan va Yevropa adabiyotidan ham yaxshi xabardor edi.

Thokurlar oilasida bolalarni ortiqcha hashamat bilan erkalatish odati yo`q bo`lgan, buning o`rniga ularning chuqur va har taraflama ma`lumot olishiga ko`proq e`tibor qilinardi. Bolalar maktabga qatnardilar, shu bilan birga, uyda ham maxsus muallimlardan dars olardilar. O`qishlar bengal tilida olib borilardi. «Biz yoshligimizdanoq bengal tilida o`qiganimiz uchun ma`naviy jihatdan kamol topdik... Inglizcha o`qitilganda, birinchi darsning o`zidayoq bengal bolalarining hamma tishi sinib tamom bo`larda: Hamma yerda inglizcha tarbiya berish zarurligi betinim ta`kidlanishiga qaramay, mening katta akam bizga bengalcha tarbiya berishga qodir qat`iyatli kishi edi», - deb yozadi Thokur o`z «Esdaliklar»ida. Yozuvchining o`z ona tilini chuqur bilishi va unga boshqalardan ko`ra ko`proq ehtirom bilan qarashi ham

shundan kelib shiqqandir.

Thokur dastlab Sharq seminariyasida, so`ngra taxminan bizning to`liqsiz o`rta maktabga to`g`ri keladigan maktabda ta`lim oldi. Ammo yetti-sakkiz yoshidanoq daftariga she`rlar yozib, o`z yaqinlariga o`qib yurgan bu zakovatli bolaga bu maktabdagi o`qish va intizomning bema`ni rasmiyatlari tamom begona edi

Bundan so`ng Thokur Bengaliya akademiyasida - o`rta maktab tipidagi bilim yurtida o`qidi; ammo bu yerdagi o`qish ham tuzuk foyda bermadi, muallimlar badavlat xonadonlarning bolalariga nisbatan talabchan emas edilar, chunki maktabning ishi ko`pincha shularning ehsonlariga bog`liq bo`lardir. Akademiyaning birdan-bir foydasi shu bo`ldiki, bola bu yerda birinchi, marta sahnada o`ynadi. She`r yozishni esa davom ettirdi. «Menda she`riyatga shunday zo`r ishtiyoq bor ediki, she`riy mashqlardan voz kechishga meni hech kim majbur etolmas edi», - deb eslaydi Thokur.

Robindranath o`n ikki yoshga to`lganda, an`anaviy marosimda uni braxmanlikka o`tkazdilar, shundan so`ng otasi uni birinchi daf`a Himolay tog`iga sayohatga olib ketdi. Tabiatni hamisha rassom ko`zi, shoir qalbi bilai mushohida etuvchi yosh Thokurning ko`nglida bu sayohat chuqur taassurot qoldirdi. Uning otasi mohir murabbiy edi, o`g`lida paydo bo`lgan har qanday yaxshi havasning ravnaq topishiga yordam qilardi.

Sayohatdan qaytgach, Robindranath oilaning komil huquqli a`zosi bo`lib, kattalar suhbatiga qatnashishga ijozat oldi. Bir oz avliyo Ksaveri litseyiga qatnadi-yu, shu bilan maktab mashg`ulotlarini tugatdi. Thokur oliy o`quv yurtida o`qiy olmadi, ko`p qirrali - ensiklopedik ma`lumotlilik - uning xususiy mutolalari samarasidir.

«Oilamizda hukm surgan adabiy va san`atkorlik muhiti mening yoshligimdagi eng ulug` saodat edi», - deb xotirlaydi Thokur.

Darhaqiqat, Thokurlar oilasi o`ziga xos bir universitet edi, u yerga Bengaliyaning mashhur yozuvchilari, sozandalari, dramaturglari va jamoat arboblari kelib turardi. Robindranathga eng ko`p ta`sir ko`rsatgan kimsa -

uning beshinchi akasi Jotirindronath bo`ldi (Robindranath oilaning o`n to`rtinchi farzandi edi). «Adabiy emotsional kamolotim uchun, men ehtimol hammadan ko`ra uning oldida ko`proq burchlidirman», - deb yozgan edi, Thokur shu akasini eslab. Oqshomlari akasi skripka shalar, Robindranath ashula aytar edi. Thokur musiqani g`oyat sevar va chuqur his etardi. Jotirindronathning yaqin do`sti Okxoy Chondro Choudxuri bolaga vishnu poeziyasining boyligini oshib berdi; o`rta asrda ijod etgan vishnu shoirlari insonning Xudo oldida baravarligini, insonga muhabbatni targ`ib qilishar, toifaviy ayirmachilik nazariyasini inkor etishar edi; vishnu lirikasi Thokurning she`riy ijodida katta ta`sir qoldirdi.

Thokur o`z zamondochlarining har xil asarlarini zo`r e`tibor bilan o`qidi, bular orasida indigo plantatsiyalaridagi ishshilarning inglizlar tomonidan shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishini tasvirlovshi Dinabondxu Mitroning «Indigo oynasi» degan piesasi ham bor edi. Robindranath Bonkim Chondro Chottopadxayyaning yangi romani bosilayotgan “Bongodoroshon” jurnalining navbatdagi sonlarini sabrsizlik bilan kutardi.

Robindranath maktabda o`qib yurgan choqlaridayoq Shekspirning «Makbet» tragediyasini bengal tiliga tarjima qildi.

Thokurning birinchi she`r va maqolalari «Gyanankur» jurnalida bosildi. 1877-yilda 16 yashar Robindranath akasi Jotirindronatx tomonidan ta`sis etilgan «Bxaroti» jurnalining eng faol xodimi bo`lib qoladi. Bu yerda Thokur Yevropa adabiyoti haqida; masalan, Italiya shoirlari haqidagi maqolasini va «Bxanu Shingxo dostoni»ni nashr etadi. Bu asar o`rta asr vishnu shoiri Bidyapoti asarlariga mohirona nazira edi.

Thokurlar oilasining tashabbusi bilan har yil milliy yarmarka - Hindu Mela tashkil etilib, unda xalq ijodi va hunarmandlar ishlagan san`at namunalari namoyish qilinadi, vatanparvarlik ruhidagi she`rlar o`qilardi. Bu juda zarur tadbir edi, Thokurning o`z «Esdaliklar»ida yozishisha, u yillarda «ko`pgina bilimdon kishilar o`z xalqlarining tilidan va madaniyatidan uzoqlashgan edilar. Otamning hayotidagi hamma nuqsonlardan qat`i nazar, yurtimizga chuqur

ehtiromlar tuyg`usi uni aslo tark etmagan edi, bu - uning avlodlarida kuchli vatanparvarlik hissi bo`lib qayta tug`ildi».

1878-yilda Robindranathni ikkinchi akasi o`zi bilan birga Angliyaga olib ketdi. U yerda Thokur huquq fanlarini o`rganib, advokat bo`lishi lozim edi. Dastlab u Braytondagi maktabda o`qiydi, so`ngra Londonga borib universitetda adabiyot darslariga qatnashadi hamda avvalgidek she`r va maqolalar yozib, «Bxaroti» jurnalida bostirib turadi.

Ingliz adabiyotini o`rganish bilan bir qatorda, Thokur ingliz xalqining madaniyati va hayoti bilan, shuningdek, Yevropa san`ati va musiqasi bilan ham yaxshi tanishadi

Angliyada bir yarim yil istiqomat qilgandan so`ng, Thokur o`z vataniga qaytadi. Huquqshunoslik sohasida yuqori martabaga erishish fikridan voz keshib, 1881-yilda otasining xohishiga muvofiq, Shileyddagi (Bengaliyada) mulklarini idora qilishga kirishadi va 1883-yili Mrinalina Debiga uylanadi.

Thokur Hind mumtoz musiqasi va Yevropa musiqasi ta`siri ostida, qadimiy Hind eposi «Ramayana»ning yaratilishi haqidagi rivoyatlardan biri asosida «Valmikining dahosi» nomli kichik musiqali drama yozadi.

1881-yili Robindranath Shandernagorda, Gang sohilida, akasi Jotirindronatxning uyida mehmon edi. U shu yerda o`zining «Oqshom qo`shiqlari» degan lirik she`rlar to`plamini yaratadi. Bu asarda, shoir o`zi aytganday: «Hali o`z qalbini mushohada qilish bilan band edi... Na she`r vazni, na til hali tugal bir shaklga kirmagan edi, ammo «Oqshom qo`shiqlari»ning ahamiyati shundaki, men unda o`zimning o`sha davrdagi haqiqiy o`ylarimni o`zimga manzur yo`sinda ifoda etdim». «Oqshom qo`shiqlari» badiiy kamolotga yetmagan bo`lsa ham, Bonkim Chondro Chottopadxayyaga ma`qul bo`ldi.

Keyinroq, 1883-yilda, Thokurning o`rta asr hind turmushidan olib yozilgan «Boutxakuranir Xat» romani va mashhur «Zohid» piesasi bosilib chiqadi. Bu piesada riyozat chekish, tarki dunyochilik, mavhum falsafiy muhokamalar va quruq mushohadalar tanqid ostiga olinib, kishi shaxsiyati va uning yerdagi

quvonshlarga boʻlgan huquqi tasdiq etiladi. «Bu piesa, - deb yozadi Tarop, - mening keyingi butun faoliyatimga bir deboca deb qaralsa boʻladi, yoki, yana toʻgʻrirogʻi, butun yozuvchilik faoliyatimni oʻziga tortgan mavzudir».

Thokurning «Uylar» degan maqolalar toʻplami va «Sahar qoʻshiqlari» ham shu mavzularga bagʻishlangandir.

XIX asrning oxirida Thokur «Suratlar va qoʻshiqlar», «Baland va past pardalar» degan sheʼr toʻplamlarini nashr etadi. Shoirning iqroriga, bu asarlarida u birinchi dafa oʻzini oʻrab olgan muhitga eʼtibor qiladi. 1886-yilda Thokur «Balok» jurnali uchun Tiripur rojasi Gobind Manikya hayotidan olingan voqia asosida «Donishmand roja» degan tarixiy roman yozadi. Keyin bu romanni Thokur qayta ishlab, «Qurbonlik» nomli piesaga aylantirdi. «Roja va Rani» piesasi ham xuddi shu davrda yozilgan edi.

Yozuvchining eʼtibori haqat adabiy ishlar bilangina band emas edi. U sekin-asta, lekin borgan sayin koʻproq ijtimoiy faoliyatga kirishib, leksiyalar oʻqiydi, «Braxmo Samaj» jamiyati majlislariga qatnashadi va tez fursatda bu jamiyatning kotibi boʻlib qoladi.

### **1.3. Robindranath Thakur – Hindiston madhiyasining muallifi.**

80-90-illarda Hindistondagi siyosiy vaziyat gʻoyat darajada murakkab edi. Inglizlarning mustamlakachilik tuzumi asoslarini qaqshatib, 1872-1882-yillari butun Hindistonda dehqon gʻalayonlari boʻlib oʻtdi. Siyosat maydoniga milliy burjuaziya kirib keldi, har xil ijtimoiy jamiyatlar tashkil etildi. 1885-yilning dekabrda Bombayda Hind Milliy kongressi partiyasining taʼsis etuvshi qurultoyi oshildi. Bu partiyaning tashkil etilishi milliy burjua oppozitsiyasining mustamlakachilik tuzumiga qarshi shiqishi edi, biroq bu davrda Kongress hali xalq harakatidan chetda turardi. Shunga qaramay, bu Kongress ingliz hukmdorlarining zoʻravonligiga, hindlarning yuqori mansablardan chetlatilishiga, hindlarning oʻz vatanlarida kam-sitilishiga va huquqsizlantirilishiga qarshi shiqib, xalqning milliy ongini uygʻotishda katta ijobiy rol oʻynadi.

Millii uyg`onish, ayniqsa, Bengaliyada yorqinroq namoyon bo`ldi. Shunki bengaliyaliklar Hindistonning ancha shakllangan millati bo`lib, yosh Thokur ishtirok etgan ko`pgina vatanparvar jamiyatlarning va madaniy tashkilotlarning faoliyati xuddi shu joyda rivojlanishi ham bejiz emas edi.

XIX asrning 90-yillarda Thokur yetuk yozuvchi va yirik jamoat arbobi bo`lib qoladi. Asarlarining mavzusi o`zgaradi, yozuvchi kishik hikoya janriga ko`proq e`tibor qila boshlaydi.

Uch oylik Yevropa sayohatini mustasno qilganda, Thokur deyarli hamma vaqt oila mulkining markazi bo`lgan Shileydda istiqomat qiladi. Qishloqqa kelish Thokurga xalq: dehqonlar, kosiblar, mayda amaldorlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi, u ularning huquqsiz ahvolini, muhtojlik va xonavayronligini ko`radi. Bu taassurotlar uning o`nlab hikoyalarida aks etgan bo`lib, bularning ko`pi xuddi shu yillarning mahsulidir. Uch tomlik hikoyalarning ikki tomi XIX asrning 90-yillarida yozilgan.

Thokurning hikoyalari uning eng yaxshi asarlari jumlasidandir. Bu hikoyalar oddiy odamlarning g`am-kulfatlariga hamdardlik, xayrixohlik, ingliz mustamlakalariga, katta mansabdorlarga, politsiyaga, zamindorlarga, zolimlarga va boshqa turli-tuman tama`gar va manfaatparastlarga, munofiqlik va zo`ravonlikka qarshi nafrat hislari bilan to`lgandir. Thokur insonni ruhan pashoq va nogiron qiladigan foydaparastlik, nokaslik hirsini qoralaydi. Shu bilan birga Thokur o`rta asr feodal qoldiqlarini, ayniqsa, toifaviy bo`linishlarni qattiq va rahmsiz masxaralaydi, Braxman-kohinlarni, tarki dunyochilik va soxta taqvodorliklarni fosh etadi. Bu xurofotlar iskanjasida hammadan ko`proq azob tortgan hind xotin-qizlari taqdiriga Tarop alohida e`tibor beradi. U birinchi daf`a o`z hikoyalarida xalq ommasini ko`rsatadi, «kishik odamni» o`z asarlarining ijobiy qahramoni qilib oladi, ularni sofdil, oliyjanob, insonparvar va o`z burchiga sodiq qilib tasvir etadi.

Masalan, 1891-yilda yozgan «Hisob-kitob» hikoyasida Thokur mustamlaka Hindistonda pul hukmronligini zo`r kuch bilan ochib beradi. Adib bu hikoyasida qalin baravariga erga berilgan yosh qizning fojiali taqdirini

hikoya qiladi.

Halol, to`g`ri odamning muttaham va tama`garlarga qarshi kurashi «Beaql Ramkanai» (1891-yil) hikoyasida juda yorqin ifoda etilgan. «Meros» (1891-yil) hikoyasining qahramoni - xasis chol kamoli baxilligidan aqldan ozib, mol-dunyomni abadiy asrasin, deb sevimli nabirasini tiriklay oltinlari bilan ko`mib tashlaydi. «Yechilgan topishmoq» (1893-yil) hikoyasi zamindorlarning dehqonlarni shafqatsiz xo`rlashini ko`rsatadi.

Eng yaxshi hikoyalaridan biri «Nur va soyalar»da (1894-yil) yozuvchi ingliz mustamlakachilarining zo`ravonligi, hind amaldorlarining ularga qullarsha tiz cho`kishi, dehqonlar va mayda savdogarlarning qo`rqoqligi, shijoatsizligi haqida g`azab bilan gapiradi. Hikoyaning ijobiy qahramoni Shoshibushon ismli yosh ziyolidir. U oddiy odamlarning tarafini olib, hind savdogarlari tushib kelayotgan barkas-kemani suvga cho`ktirgani uchun bir inglizni sudga beradi. Biroq hindlar ingliz sohib bilan sudlashishga botinmaydilar. Yigitning bechoralar tarafini olishga urinishining oqibati, baliqshilarning hayot manbai bo`lgan qimmat baho to`rlarini qirqqan ingliz amaldorini urib, o`zining turmaga tuchishi bilan tugaydi.

Thokur ba`zi vatandochlarining o`zlarini otashin vatanparvarday ko`rsatib, amalda mustamlakachilar oldida xushomadgo`ylik qilishlaridan qahr-g`azab bilan kuladi («Toj kiyish», 1898- yil).

Thokur diniy xurofotlardan iborat feodal qoldiqlarini ham xuddi shunday qattiq qoralaydi. Hindistonda bunday xurofiy qoldiqlarning eng kuchligi toifachilik - kasta tizmi edi. Bu «Hind taraqqiyoti va Hindiston qudratining o`sishi yo`lidagi asosiy to`siq edi»<sup>1</sup>. xIX asrning 90-yillaridayoq Thokurning ovozi toifachilikka qarshi ehtiros va dadillik bilan yangradi. «Oq padar» (1892-yil) hikoyasida qahramonning xotini past toifadan ekani ma`lum bo`lib, u yo kasta qoidasiga muvofiq sevgili xotinidan voz keshishi, yoki xotinini deb kastadan shiqib ketish kerak bo`lib qoladi. Mana shunda u jamiyatning chirigan an`analariga, otasining la`natlariga e`tibor qilmay, kastadan shiqib, sevgili xotini bilan birga ketadi.

Thokurning go`zal hikoyalardan biri «Moxamayya» (1893-il) xotinlarning o`z-o`zini kuydirishi kabi yovvoyi odatni fosh qilishga bag`ishlangan.

Uning ko`p asarlarida xotin-qizlarning dilbar obrazlarini ko`ramiz. Yozuvchi bularni hamisha muhabbat va zo`r xayrixohlik bilan tasvir etib, o`quvchining diqqatini hind jamiyatida xotinlar ahvoliga, tul xotinlarning fojiali taqdiriga jalb etadi.

«Daftarcha», «Shubxa» (1892-yil), «Sudya» (1894-yil), «Opa» (1895-yil) va boshqa hikoyalarda Thokur salaflarniig, ya`ni XIX asr birinchi yarmida xotin-qizlarni feodal sarqitlaridan ozod etish uchun kurashgan bengaliyalik ma`rifatparvarlarning an`analarini davom etdiradi.

«Xayru xudoyi» hikoyasi - riyokor «xudojo`ylar», braxmanlar va zohidlar ustidan omonsiz zaharxandadir (1898-yil). Braxman Boydonatx, xudo bir farzandi voris ato qilarmikan, deb hashamat bilan xayri-xudoyiga zeb bergan vaqtda, «Bengaliya, Bixar va Orissada dahshatli ocharchilik boshlanib ketadi. Boydonatx endi nonim kimga nasib bo`larkin deb o`ylarkan, ochlar endi nima yer ekanmiz, - deb qayg`u bilan tovoqlarga tikildilar». Thokur braxmanlar va zohidlarning munofiqlik va oshko`zliklarini, o`rta asr odatlarining ma`nosizligini achchiq kinoya bilan ko`rsatib, imtiyozli braxmanlarning sharmandasini shiqaradi («Najot» - 1891-yil, «Qutulish» - 1900-yil va boshqalar).

Thokur hikoyalari feodalizm va mustamlakachilikka qarshi qaratilgani shubhasizdir. Garchi bu hikoyalar ro`y-rost kurashga chaqirmasa ham, ularning obektiv mohiyati shunga targ`ib qilishdir.

Thokur hikoyalarining muhim fazilatlaridan biri yana shundaki, yozuvchi xalqning yuksak ma`naviy qiyofasini haqqoniy va ishonarli qilib ochib beradi, uning kundalik og`ir va qorong`i hayotini ko`rsatadi. U oddiy odamlarni zo`r muhabbat bilan tasvir etib, boylarning koshonasidan ko`ra kambag`allarning kulbasida insoniylik ko`proq ekaniga o`quvchini ishontiradi («Beaql Ramkanai», «Tuzalmas baxtsizlik», «Hisob-kitob»<sup>1</sup> va boshqa hikoyalar).

Hikoyalarda Thokur o`zini psixologik tahlillar ustasi va kishi qalbining



nozik bilarmoni sifatida ko`rsatdi.

Thokur istifoda qilgan tasvir vositalari g`oyat rang-barang. Ayniqsa, tabiat manzaralari unga juda qo`l kelib, biror obraz va kayfiyatni yaratmoq uchun fon vazifasini bajaradi. Robindranath Thokurning ko`p hikoyalari yengil yumor, ixshamlik, kompozitsiyasining o`ziga xosligi, syujetining jo`shqnnligi va rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi.<sup>8</sup>

Thokur hikoyalarining tili jonli tilga yaqindir. U o`z salaflariyaiig yaxshi an`analarini rivojlantirib, xalq orasida keng qo`llanilgan so`zlarni dadillik bilan adabiy tilga olib kirdi, bengal adabiy tilini jonli xalq tiliga yaqinlashtirdi va shu tariqa bengal adabiy tiliga jiddiy o`zgarish kiritdi.

Tarop hikoyalari hind xaltugari adabiyotiga zo`r ta`sir ko`rsatdi. Ularning insonparvarlik, realizm va tanqidiy yo`nalish kabi asosiy xislatlari hind adabiyotida tanqidiy realizmning vujudga kelishida muhim rol o`ynadi.

Binobarin, Hindistonning eng ulug` realist yozuvchilari Prem Chand, Sharot Chondro Chottopadxayyalarning o`z ijodlarida Thokurning katta ta`siri borligini gapirishlari bejiz emas. Masalan, Prem Chand: «Mening hikoyalarimga kelganda, men birinshn davrda o`zimda Robindratning ta`sirini sezdim», - deb yozadi.

Hikoyalar bilan bir qatorda Thokur dramalar, she`r kitoblari va bir qancha maqolalar yozadi.

Thokur realizmi shu davrda yaratgan piesalarida, ayniqsa, yaqqol ko`zga tashlanadi. Bular yengil yumor, o`tkir kinoyalar bilan to`la ijtimoiy komediyalar edi. («Xato eng avvaldan», «Bo`ydoqlar klubi», «Baykuntaning vasiyati» va boshqalar).

Thokurning she`riy ijodi ham g`oyat rang-barangdir. «Manoshi» to`plami (1890-yil) yetuk she`riy asar bo`lib, shoirning tabiat, insoniy tuyg`ular hamda vatan haqidagi she`rlarini o`z ishiga oladi. «Oltin qayiq» to`plami (1892-yil)

---

<sup>8</sup> Бу мақолада тилга олинган ҳикоялардан ўн бештасини-Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти 1957 йилда Тагорнинг «Нур ва соялар» номли ҳикоялар тўпламида нашр этди. Тагор асарларининг IV-V томлари адибнинг кўп ҳикояларини ўз ичига олади.

badiiy tasvir vositalariga juda boy. «Chitragada» (1893-yil), «Kotxa» (1899-yil) va boshqa to`plamlari esa, vazning ohangdorligi bilan ajralib turadi. Bir parchasi rus tilida «Nogihoniy qushlar» nomi bilan mashhur bo`lgan «Kxonika» (1899-yil) to`plami esa mohirlik bilan she`rga solingan hikmatli so`zlardan iboratdir.

Thokur bu davrda yozgan maqolalarida 90-yillardagi Bengaliyaning muhim madaniy, ijtimoiy problemalarini ko`tarib chiqadi. U o`z vatanining ijtimoiy hayotiga juda qiziqib qaraydi va unga faol ishtirok etadi.

«Braxmo Samaj» jamiyatining faoliyati uni qanoatlantirmay qoladi va u asta-sekin bu jamiyatyaint ishidan uzoqlashadi. 1895-yilda Thokur «Shadxona» jurnalini ta`sis etishga kirishib, unda o`zining o`tkir siyosiy mavzudagi maqolalarini nashr ettira boshlaydi. Masalan, «Inglizlar va hindlar», «Inglizlarning hadigi» degan maqolalarida hindlar bilan musulmonlarning birlashuvi zarurligini ta`kidlab, ingliz mustamlakachilar xuddi shu birlikdan xavfsiramoqdalar, deb ko`rsatib o`tadi.

Thokurning Hindiston ijtimoiy hayotidagi oqimlardan biri bo`lgan neohinduizm tarafdorlari bilan to`qnashuvi ham xuddi shu yillarga to`g`ri keladi.

Neohinduistlar milliy ongni va milliy madaniyatni rivojlantirish tarafdori bo`lib shiqdilar. Shu bilan birga, ular eskilikka qaytish, hinduizmning o`rta asr qoldiqlariga qaytishni targ`ib qildilar. Thokurning asarlari, nutqlari va maqolalaridan ko`rinib turibdiki, u neohinduizmning xuddi mana shu reaksiya jihatlarini tanqid qilgan.

Thokur mamlakat hayotidagi hamma muhim voqealarga qiziqib qarardi. Inglizlar milliy ozodlik harakatining ulug` arboblaridan biri Tilakni qamoqqa qamaganlarida, Thokur uni himoya qilib chiqadi. U Tilakni ozod etish kampaniyasiga qo`shilib, yordam fondi uchun pul to`playdi.

Ayni zamonda yozuvchi mamlakatdagi turli tabiiy ofatlarga qarshi kurashishga ham yordam qiladi. Masalan, u Kalkuttada vabo kasaliga qarshi kurashga ko`maklashadi. Milliy madaniyatning otashin homiysi

Thokur turli idoralar va jamoat tashkilotlarida bengal tilini qo'llash yo'lida hormay-tolmay kurash olib boradi. U bengal bolalarini o'z ona tillarida o'qitishlarini talab qiladi, alla qo'shiqlarini to'playdi; xalq ijodiyoti haqida leksiyalar o'qib, uning bengal adabiyotining taraqqiysi uchun zo'r ahamiyatini tushuntiradi.

Thokur ko'pdan buyon o'ylab yurgan ezgu niyatini ro'yobga shiqarib, 1901-yilda otasining Shantiniketondagi mulkida maktab ochadi va oilasi bilan shu yerga ko'shib kelib, o'zi tuzgan maxsus dastur asosida bolalarni o'qita boshlaydi.

Daslab maktabda haqat besh bola o'qib, shulardan biri Thokurning o'z o'g'li edi. Bir necha yildan so'ng o'quvchilar soni yuz ellikdan oshib ketdi. Thokur bolalar o'z tashabbuslarini bo'g'ib qo'ymaydigan sharoitda o'qishlari lozim deb bilar, bolalarni ilm-fanga qiziqtirishga urinardi. Darslar ko'pinsha ochiq havoda olib borilar va ashula bilan boshlanardi. Thokur o'z maktabining asosiy maqsadini tushungan, adabiyot, tarix, san'at va aniq fanlarga bolalarni rag'batlantira oladigan o'qituvchilar tanlashga tirishardi. Shantiniketondagi maktabda tez-tez dramatik asarlar sahnaga qo'yilar, ularpa bolalar va yozuvchining o'zi qatnashardi. Thokur ko'p piesalarini shu maktabga atab yozgan edi.

Shantiniketonda bolalar odob-axloq normalarini o'zlari belgilar, boshliqlarini o'zlari saylar, boshliqlar esa, maktab Kengashi bilan birga tozalik va tartib saqlar, ta'minot masalalari bilan shug'ullanar, ko'ngilli mashg'ulotlar tashkil etardi. Bir qator kamchiliklariga qaramay, bu maktab rasmiy maorif tizimi fonida o'zining ijobiy jihatlari bilan keskin farq qilardi.

Thokur birinchi davrda bolalarni pulsiz o'qitgani uchun moddiy jihatdan ko'p qiyinchliklarga yo'liqdi.

Ta'lim-tarbiya bobidagi faoliyati uning adabiy faoliyati bilan muvofiq ravishda davom etdi. 1901-1902-yillarda «Ko'zga tushgan qum», «Halokat» romanlarini yozib, shu bilan bengal adabiyotida maishiy-

psixologik roman janriga mustafkam asos soldi.

«Halokat» romani real hayot bilan qoloq an`analar orasidagi ziddiyatlarga bag`ishlangan. «Ko`zga tushgan qum» romani esa, Hindistonning qoloq feodal voqeligida xurofot asoratida qolgan yosh beva ayolning mudhish taqdirini hikoya qiladi.

XX asrning boshi Thokur hayotida eng og`ir davr edi. 1902-yilning noyabrida sevgili rafiqasi vafot etdi. So`ngra qizi (1903-yil), otasi (1905-yil) va nifoyat 1907-yilda o`n uch yashar o`g`li vafot qildi. Biroq, shaxsiy g`am va motamzadalik Tarorning po`lat irodasini sindira olmadi, u tobora zo`rroq g`ayrat va sabot bilan ijtimoiy faoliyatini davom etdirdi.

Bu davrda Hindiston jo`shqin kunlarni boshidan keshirardi. Birinchi rus inqilobi sharq xalqlarini uyg`otdi. Hindistonda inqilobiy ko`tarilish boshlandi. Lord Kerzon tomonidan 1905-yilda Bengaliyani ikkiga ayirish haqidagi farmon e`lon qilinishi mustamlakachilarga qarshi ommaviy harakatning bevosita sabablaridan biri bo`ldi. Mamlakatda milliy ozodlik harakati yangidan to`lqinlana boshladi. Bu ozodlik harakatining asosiy shiori «svaraj» («o`z idoramiz») «svadeshi» («o`z sanoatimiz») edi. Bu harakat qatnashshilari Hindistonga o`zini idora qilish huquqi berishni chet el tovarlariga baykot e`lon qilishni va Hindiston milliy sanoatini rivojlantirishni talab qiladilar. Bu harakat «svadeshlar» nomi bilan mashhurdir.

Thokur «svadeshlar»ning rahbarlaridan biri bo`lib qoladi. U yig`ilishlarda va mitinglarda nutq so`zlaydi. Uning shu munosabat bilan yozgan she`rlarini xalq ashula qilib kuylaydi.

Robindranath Thokur Kalkuttadagi namoyishlardan birining oldingi qatorida bordi, namoyishshilar esa uning she`rini kuyladilar:

Ye1tarlikmi qudratingiz, yirtib tashlashga

Taqdir bizni bog`lab qo`ygan kishan-g`ovlarni?..

Tator 1905-yilda «Bxandar» nomli ijtimoiy-siyosiy jurnal ta`sis etib, unda o`zining siyosiy qarzshlarini bayon etadi. «Qirol va fuqaro» maqolasida inglizlarning maqsadi - Hindistonga yordam berish emas, balki

uning daromadini asta-sekin so`rib olishdir, - deb tushuntiradi. U lord Kerzonga javoban, hindlarning ulug boburiylar davridagi milliy qahramoni Shivaji haqida doston yozib nashr etadi; Thokur bir qancha maqolalarida qishloq xo`jalik ishlarini qayta qurish haqidagi rejani olg`a suradi. U, «Yevadeshlar» harakatida qatnashgani uchun o`quv yurtlaridan haydalgai studentlarni birlashtirmog`i lozim bo`lgan milliy maorif kengashining ish planini tuzishga qatnashadi. Bu kengash mashhur hind siyosiy-arbobi va faylasufi Orobind Gxosh rahbarligi ostida Bengaliyaning eng taraqqiyparvar yoshlarini birlashtirdi. Thokur ularga adabiyotdan leksiya o`qidi.

1906-1907-yillarda Thokur o`z mamlakatida juda mashhur bo`lib ketadi, u yoshlar uchun xatti-harakatning mujassam timsoli bo`lib qoladi, uning uyida vatanparvarlar yig`iladi, leksiyalarini minglab odamlar tinglaydi.

Biroq Thokur tezdan «svadeshlar» harakatida qatnashmay qo`yadi. U islohot tarafdori bo`lib, siyosiy kurashda zo`ravonlikka qarshi edi. Ijtimoiy o`zgarishni u utopik ravishda tushunardi. Uning fikrisha, o`zgarish xalq orasiga ma`rifat tarqatish, vatan sanoatini rivojlantirish, qishloq xo`jaligi sohasida tinsh yo`l bilan islohotlar o`tkazish va ko`ngilli jamiyatlar tuzish yordami bilan ro`yobga shiqishi lozim edi. «Svadeshlar» harakati ommaviy inqilobiy tusga kirganda, yozuvchi dunyoqarashining sheklanganligi uning bu harakatga qatnashmasligiga sabab bo`ldi.

«Svadeshlar» harakatita qatnashmay qo`ygandan so`ng, Thokur haqat ijodiy ishga va Shantiniketondagi maktabga rahbarlik ishiga berilib ketadi, u yangidan-yangi asarlar yaratadi, bolalarni o`qitadi, musiqali va dramatik asarlarni sahnaga qo`yishda ishtirok etib, ertadan keshgasha tinmay ishlaydi.

1909-1913-yillar davomida Thokur o`zining ent yaxshi asar larini yaratdi. Umuman olganda, bular voqelikni chuqur in`ikos etish bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bularda islohotchi, utopik faylasuf Thokur bilan realist san`atkor Thokurning qarashlaridagi ziddiyat yorqin aks etgan. Bu davrning ilmiy, ijodiy mahsuloti uning faoliyat doirasi neshog`lik keng ekanini namoyish qiladi.

1909-yilda uning bengal tili grammatikasi nashr etiladi, hind diniy falsafasining tadqiqotlaridan iborat traktati - «Upanishadi», dramatik asari «Qasos» nashr etiladi. Bu dramaning qahramoni qattiq qarchilik ko`rsatmaslik, zo`ravonlikdan voz keshish, hukumatning zo`ravonligiga qarshi norozilik alomati sifatida soliqlarni to`lamaslikka shaqiradi:

1910-yilda Tarop «Gitanjali» nomli lirik she`rlar to`plamini nashr etadi. Bu asar vishnu poeziyasining kuchli ta`sirida yozilgan bo`lib, insonga muhabbat va hayotni quvnab-quvonib madh etishdan iboratdir. Shu yilda u neohinduyilar bilan braxmosamajshilar kurashiga bag`ishlangan siyosiy romani «Gora»ni, «Roja» dramasini va notali ashulalar to`plamini nashr etadi.

1911-yilda uning mashhur «Esdaliklar»i, hozir Hindiston respublikasining gimniga aylangan «Janagamana» ashulasi, din tarixiga oid maqolalari, «Ramashoning o`g`li», «Ijro etilgan qaror» sarlavhali ikki katta hikoyasi maydonga keladi. Keyingisi «svadeshlar» harakati davridagi hind kosiblari hayotiga bag`ishlangan. 1912-yilda «Pochta» va «Konservatizm qal`asi» piesalari bosilib chiqadi.

«Gora» romani Thokurning eng yaxshi asarlaridan biri bo`lib, mamlakatnpng 70-80-yillardagi hayotiga, bengal ziyolilari orasida ikki oqim: neohinduyilar va braxmosamajshilar orasidagi kurashga bag`ishlangan.

Romanning syujeti neohinduist jamiyatiga mansub bosh qahramon Gora bilan do`sti Binoyning «Braxmo Samaj» jamiyatiga mansub Poresh-babu oila a`zolari bilan inoqlashishi acosga qurilgan. Thokur bu romanda fikr doirasining torligiga, qarashlarning sheklanganligiga, mazhabchilikka qarshi chiqib, vatanga xizmat qilishning komil yo`li bu tor ramkalar doirasida qolmasligi zarur deb uqtiradi.

Romanning markazida Hindistonni mustamlakachilik tuzumiga qarshi kurashish uchun oyoqlantirishga uringan otashin vatanparvar Gora obrazi turadi. Bir hind tanqidshisining aytishisha, romanning qahramoni - «mustaqillikka tashna, asoratga qarshi kurashayotgan Hindistonning

mujassam timsolidir». Gora o`zi bunday deydi: «Asosiy vazifa - e`tiqodi sust odamlarga hayotimizning afzalligi to`g`risidagi komil ishonshimizni uqtirishdir. Mudom o`z vatanimiz uchun uyaliq yurish bizga odat bo`lib, bu og`u ongimizga singib ketgan. Agar har qaysimiz o`z shaxsiy misolimizda bu og`uga qarshi kurashsak, tezdan haqiqiy faoliyat maydonini topgan bo`lamiz».

Garchi Gora induizm rukunlariga qattiq turib rioya qilishni ko`zda tutgan bo`lsa-da, uning xalqqa yaqinlashishga urinishi, dehqonlar va studentlarni himoya qilib shiqishi va boshqa ko`pgina xatti-harakatlari uning obrazini bizga yaqinlashtirib, e`tiborimizni o`ziga tortadi.

Thokur Goraning kurashiga xayrixohlik bilan qaraydi, shundoq bo`lsa ham, yozuvchining Goraga bo`lgan muhabbatidan qat`i nazar, adibning qarashlari tinsh islohotlar tarafdori, faol kurashlardan chetda turuvshi Poresh-babu obrazida aks etgan. Bu ikki obraz faol kurashning obektiv zaruriyati bilan (Gora) sustkash mushohadashilar (Poresh-babu singari) orasidagi konfliktni aks etdiradi.

Uz vatandochlariga nafrat bilan qarab, mustamlakachilarga xushomadgo`ylik qiluvshi Xaran-babuni Thokur qattiq tanqid qiladi

«Yomon odatlar haqidagi hamma gaplaringizni ingliz kitoblaridan yodlab olgansiz,- deb kinoya bilan gapiradi Gora unga, - siz voqeaning mohiyatidan batamom bexabarsiz».

Romanda juda ko`p ajoyib xotin-qiz obrazlari bor. Goraning onaxoni Anodomoyya - mukammal xarakter, oqila va jozibador ayol obrazidir. U odamlarning kim bo`lishidan qat`i nazar, hatto «past» toifadan bo`lishlariga ham qaramay, bir xil munosabatda bo`ladi. «Men o`z toiham bilan faxrlanishdan allaqashon voz keshganman», - deydi braxman qizi Anodomoyya.

Romanning bir necha bobi hind - qishlog`i tasviriga bag`ishlangan. Ularda dehqonlarning huquqsizligi, unutilganligi, bengal qishlog`ining parcha-burish bo`lib bo`linganligi, bengal amaldorlarining qo`rqqoqligi, politsiya va ingliz hokimlarining shafqatsizligi va zo`ravonligi ko`rsatilgan.

Gora shahardan qishloqqa borganda «butun hind qishlog`i yo`llarida ojizlik va parokandalikka duch keladi». Gorani hammadan ko`proq taajjublantirgan narsa neohinduistlarning hamma narsaga loqaydliklari edi Ular: «kambag`al odamlar shunday yashashga o`rganganlar, - deyishadi, - biz uchun muhtojlik bo`lib tuyulgan narsani ular fatto sezmaydilar ham». Thokurning xalq ahvolini yaxshilashni o`ylamagan burjua millatshilarini tanqid qilishi taraqqiparvar fol bo`lib, bengal adabiyotining rivojlanishiga katta xizmat qildi.

«Gora»romani butun hind adabiyotiga katta ta`sir qildi. U Thokurga ergashgan zamondochlari va uning izidan boruvshi ko`pgina yozuvchilarga ibrat bo`ldi. Qullikka giriftor etilgan, kulfat tortayotgan Hindistonga qizg`in muhabbat bu romanning har bir bobida yangrab, uning ozodligi uchun kurashga da`vat qiladi. Bu Hindistonda tanqidiy realizmning birinchi katta asaridir.



## **II-bob. Robindranath Thakurning Hindiston ozodligi uchun kurashi.**

### **2. 1. Robindranath Thakur – ma’rifatparvar.**

1912-yilda Thokur chet ellarga bir necha bor saharga chiqadi. Uzoq tanaffusdan keyin u yana hind chegaralaridan tashqariga shiqib, Yevropa va Amerikaga boradi. Thokur Amerikada, qadimiy hind madaniyati mavzuida leksiya o`qiydi, uning Gorvard universitetida o`qigan falsafiy leksiyalari «Shadxona» nomi bilan nashr etiladi. Bu kitob rus tilida «Postijenie jizni» nomi bilan mashhurdir.

Bu yillarda yozuvchining nomi butun jafonga mashhur bo`ladi. «Gitanjali» ingliz tilida nashr etilgandan so`ng (1913-yil) haqat rus tilida 1914-yilning o`zidayoq to`rt marta bosilib shikadi.

Bu to`plamdagi she`rlar birinchi qarashda diniy-vishnu poeziyasini eslatgani uchun, ba`zi Yevropa adabiyotshunoslari va tanqidshilari uni mistik va simbolist shoirning asari deb tarafkashlik bilan noto`g`ri talqin etgan edilar. Aslda esa, Tarop she`riyatida hind xalqining o`ziga xos ruhiy folati va madaniyati ifoda topgan, uning ijodiyoti vishnu shoirlariga xos hayotbaxsh gumanizm va demokratizm ideallari bilan to`lgan bo`lib, tuchkunlikni ifodalovshi dekadentlar san`ati bilan hech qanday aloqasi yo`q,

«Gitanjali» to`plamida lirik she`rlar bilan bir qatorda shoirning vatan taqdiri haqidagi o`y-fikrlari aks etgan she`rlar ham bor. Shoir yozadi:

*Aqlu idrok qo`rquv bilmay, boshin baland ko`targan,  
Ilm ozod bo`lgan joyda,  
Ro`zg`orning choldevori olamni tor qilmagan,  
Haq-haqiqat bor joyda,  
Betinim intilish bilan qo`l kamolatga yetgan,  
O`lik urflar qumlog`ida musaffo aql oqimi  
Singib ketmaydigan zamonda,  
Dadil xayol parvozini o`zing ishga yo`llagan joyda,  
Shu ozodlik jannatida uyg`otgil Vatanimni!*

Murojaatnint bu shakli vishnu poeziyasining an`anasidir. Mana shuning singari tashqi alomatlar yuqorida zikr etilgan adabiyotshunoslarning Thokurni mistik va simvolist shoirlar qatoriga qo`shishlariga sabab bo`lgan,

1913-yilda Kalkutta universiteti Thokurga adabiyot fani doktori unvonni berdi. Usha yili u adabiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo`ldi. Bu xuch xabar uning vatanida zo`rg`ayrat va tashabbuskorlik uyg`otdi.

1914-yilda bengal yozuvchisi Promodxo Shoudxuri «Shobuj Potro» nomli jurnal shiqara boshladi. Thokur bu jurnalda faol qatnashdi. Shu jurnal sahifasida uning «svadeshlar» harakatiga bag`ishlangan «Uy va tinshlik» romani bosilib shiqdi (1916-yil).

Bu romanda Thokurning «svadeshlar» harakatiga qatnashgan davrdagi utopik va islohotchilik qarashlari aks etgan. Roman qahramonlarning xotira daftari tarzida tuzilgan. Bular asosan uch kishi bo`lib, zo`ravonlikni rad etib, islohotchilik pozitsiyasida turgan katta zamindor Nikxil, «svadeshlar» harakatining rahbarlaridan Sandep va Nikxilning xotini Bimolidir.

Sandep o`ta so`l bo`lgani uchun Thokur uning obrazini karikatura tarzida tuzadi. Bimoli esa, boshda bu odamga ancha maftun bo`lsa ham, bora-bora undan soviydi. Garshi roman «svadeshlar» harakati rahbarlarini tarafkash tarzda aks ettirsa ham, har folda unda bu harakatning salbiy tomonlari, shunonshi ayrim rahbarlarning manfaatparastlik, shuhratparastlikka intilishi to`g`ri tanqid qilingan.

Ayni zamonda Thokurning «To`rt» sarlavfali qissasi bosilib chiqadi. Bunda bizning ko`z o`ngimizda to`rt obraz namoyon bo`ladi: bulardan biri o`z moddiy ahvoliga e`tibor qilmay, butun umri odamlarga g`amxo`rlik qilib yuruvchi dahriy Jagomoxan bo`lib, ikkinchisi uning jiyani Satishdir, bu yigit goh o`ta ketgan dahri, goh xurofotlar giriftori, goho esa, mavhum falsafiy muhokamalar bilan bosh qotirib yuradi; uchinchisi - qalbi mehr-muhabbat bilan to`la, vafodor va ayni zamonda befoyda diniy izlanishlarga istehzo bilan qarovshi isyonkor ayol Damini obrazidir. Qissaning to`rtinshi

qahramoni Shrivilas bo`lib, voqea uning tilidan hikoya qilinadi, Uniig yuragi ikkilanishni bilmaydi, u hayotga oddiy va tabiiy bir yo`sinda yondashadi, uning Daminiga muhabbati ochiq va insoniydir Induizmning eng qoloq an`analariga tegadigan har bir narsaga tish-tirnog`i bilan qarshi shiquvshi munofiqlar va xudbinlar romanning ikkinshi darajali qahramonlari bo`lsa ham, bular Jagomoxan akasining oilasi tasvirida yorqin ifodalarini topganlar. Diniy mazhab boshlig`i Lilanondo Svaji obrazi ishora bilangina ko`rsatilgan bo`lsa ham, o`quvchida juda ko`ngilsiz taassurot qoldiradi.

Bu qissa diniy bo`g`iqlik va mutaassiblikni tanqid qiladi. O`sha zamon sharoitida «haq yo`lga kirgan» o`z akasi oilasidan va Lilanondo Svaji singari diniy rahbarlardan, aqlan bir gaz yuqori turuvshi dafri Jagomoxan obrazini yaratish katta jasorat edi.

Birinchi jafon uruchi yillarida Thokur adabiyot bilan jiddiy shug`ullanishdan tashqari jamoat ishlari va ta`lim-tarbiya sohasidagi faoliyatini davom etdiradi. O`zining Yaponiya va Amerikaga qilgan sahari vaqtida (1916-yil) leksiylar o`qib, bashariyat tarixida Hindistonning ahamiyatini ta`kidlaydi va «mashinaga sajda qilish»ga qarshi chiqadi.

Thokur bu leksiylarida feodal qoldiqlarini qattiq tanqid qilish bilan birga, kapitalistik tamaddunning rahm-shafqatsizligini qoralaydi.

Thokur Yaponiyada yapon hukmron doiralarining Xitoyga nnsbatan tajovuzkorlik siyosatini tanqid qiladi va bu hol yapon rasmiy doiralarida norozilikka sabab bo`ladi.

Bu yillarda Thokur yana Hind Milliy kongressi sezdlariga qatnashadi va «Hokimlarimiz xohishining samarasi» sarlavhali maqola yozib, hukumatning jazo shoralariga qarshi norozilik bildiradi.

Oktyabr davlat to`ntarishi ta`siri bilan Sharq mamlakatlarida, jumladan, Hindistonda yana milliy ozodlik harakati avj oladi. Ingliz mustamlaka fokimlari mamlakatda boshlangan xarakatni bosish niyatida, 1919-yilda Amristarda qurolsiz olomoni otish kabi shoralargasha bordilar. Amristardagi qon to`kishni «ommaviy qirg`in» deb xarakterlagan edi.

Bu voqia butun mamlakatni larzaga keltirdi. Hayajonlangan Thokur norozilik mitingi tashkil qilib, vitse-korolga g`azab to`la, fosh etuvshi maktub yozdi, o`ziga berilgan barsha imtiyozlardan, jumladan, 1915-yilda Angliya fukumati tomonidan unga iltifot etilgan dvoryanlikdan voz keshdi. Bu maktubda Thokur: «Vatandochlarimga odamlarsha muomila qilinmagash, men imtiyozli bo`lishdan uyalaman»,- deydi.

Amristar voqeasi hozuvchining Angliya hukumatidan Hindiston uchun biror foydali ish shiqar degan umidini barbod etdi.

20-yillarning milliy ozodlik harakatiga Tagop bevosita ishtirok etmay, madaniy-oqartuv ishlari bilangina shug`ullanadi, u ijtimoiy halokatlarning asosiy sababi ommaning nodonligi degan aqidada edi. Ammo har sahar mustamlakachilar zo`ravonlik, adolatsizlik qilganlarida u baland ovoz bilan norozilik bayon qilib, xalqni, Hindistonning milliy manfaatlarini himoya qilib shiqardi.

Bu davrda Tarop Shantiniketondagi maktab asosida universitet tashkil qilish fikri bilan band edi. U Hindistonning hamma qismlaridan kelgan o`quvchilar hind va boshqa xalqlarning boy madaniyatini, birinchi navbatda Xitoy va musulmon sharqi madaniyatini o`rganishlarini istardi. U, Hindistonda mavjud universitetlar g`arbga taqlid qiladi va hind madaniyati ruhiga to`g`ri kelmaydi, - deb hisoblar edi.

Thokur 1921-yil 22-dekabrda, universitetning oshilish marosimida bunday degan edi: «Men turli tamaddun va turli an`nadagi odamlar birga o`qiy oladigan joy bo`lsin deb, universitet ta`sis etdim. Bu ulug` g`oyadir, uni kishik miqyosda vujudga keltirayotganimiz uchun men qo`rqmayman. Ulug` g`oyalar kishik bolalardek tug`ilib, keyin o`sadilar». U universitetga Shantiniketondagi mulklarini, NobYel' mukofotini, o`z asarlarini bengal tilida nashr qilish huquqini berdi.

Shantiniketon universitetida studentlar Hindiston xalqlari adabiyotini o`rganadilar va har xil musiqa oqimlari bilan tanishadilar. San`at va hunar bo`limida rassomlik, o`ymakorlik, kulolchilik va kashtado`zlikni o`rganadilar.

Yaxshi tayyorgarligi bo`lgan peshqadam studentlar kutubxonalarda sanskrit, arab, fors va yangi hind tillaridagi ilmiy asarlardan foydalanib, qadimiy, o`rta asr va yangi hind madaniyati problemalari ustida ilmiy ish olib boradilar. Studenglar o`zlari qodir bo`lgan har xil mavzularda leksiya o`qiydilar. Keyinroq tashkil etilgan boshqa bir bo`limda katta kutubxona bo`lib, bunda Xitoy, Tibet tillaridagi kitoblar, Yaponiya, Xitoy, Malayya, Tailand va Indoneziyaning turli san`at asarlari va badiiy buyumlari saqlanar edi: Universitetda Yevropaning madaniy merosidan hamma foydali narsalar o`rganilardi va maxsus jurnal shiqarilardi. Bu universitetning g`oyat zo`r ahamiyati bor edi. U vatanparvarlik tuyg`ularini, Osiyo xalqlarining, birinchi navbatda Hindiston xalqlarining milliy g`ururini uyg`otdi, Osiyo xalqlarining yaqinlashishlariga vosita bo`ldi.

Thokur Shileydda yashagan choqda (90-yillarda) xalq hayotini zo`r e`tibor bilan o`rganib, unga qorong`ulik, qoloqlik va qashshoqlikdan qutulish uchun yordamlashish haqida ko`p o`ylagan edi. 1913-yilda Shantiniketondan ikki kilometr masohadagi Shural qishlog`idan uy sotib oldi va 1921-yilda u yerda Shriniketon nomi bilan dehqonlarga yordam beruvshi joy ochdi. Shriniketon Thokurning fikricha, dehqonlar orasida qishloq xo`jaligi bilimini tarqatish, ularga maorif va sog`liqni saqlash sohasida yordam berish markazi bo`lishi kerak edi.

Shrikiketondagi maxsus tajriba uchastkasida turli ekinlarning yangi va a`lo navlarini vujudga keltirilib, urug`i dehqonlarga tarqatilardi. U yerda tashkil etilgan ambulatoriyadan tibbiy yordam va arzon baho bilan dori-darmon sotib olmoq mumkin edi. U yerda oshilgan hunar maktabida o`quvchilar kulollik, to`quvchilik va boshqa hunarlarni egallashlari mumkii edi. Dehqonlar uchun maxsus jurnal shiqarilardi. Savodsizlikni bitirish uchun maxsus odamlar ajratilgan edi. Shriniketonga Thokur ko`p e`tibor qilardi, shunki uning chuqur e`tiqodisha, «Hindistonning saodati - eng oldin qishloqlarning baxtidir».

Yigirmanchi yillarda, Thokur keksayib qolganiga qaramay, dunyoning

deyarli hamma ulug` mamlakatlariga tashrif etadi. Taraqqiyparvar jamoatchilik uni hamma yerda ulug` hind xalqning haqiqiy vakili sifatida qabul qiladi. 1920-1921-yillarda Thokur Amerika va Fransiyaga kelib, ulug` fransuz adibi Romen Rollan bilan yaqindan tanishadi, Germaniyada mashhur olim Eynshteyn bilan uchrashadi, Daniya, Shvetsiya, Avstriya va Shexoslavakiyaga sayohat qiladi

1924-yilda Thokur Yaponiya va Xitoyga boradi Xitoy sahari Osiyoning ikki ulug` xalqi orasida madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo`ladi. Thokur Xitoyning mashhur olimlari va universitet yoshlari bilan uchrashib, muloqat qiladi. 1925-yilda u «Xitoydagi suhbatlar» kitobini nashr etadi.

Thokur adabiy faoliyatni ham to`xtatmaydi. To`g`ri, bu yillarning ijodiy mahsuli ozroq bo`lib, ijtimoiy jihatdan ham u qadar o`tkir emas edi. Bu bir jihatdan bu yillarda Hindistonda milliy ozodlik harakatining bir daraja zaiflanishi bilan bog`liqdir.

Bir oz ilgariroq Thokur Shantiniketon studentlari uchun «Kuzgi bayram» nomli musiqali asar, «Erkin oqim» va «Qizil tolgullar» piesalarini yozadi. 1925-yilda Thokurning lirik she`rlari to`plami «Purabi» bosilib chiqadi. 1926-yilda Budda rivoyatlari asosida yozilgan «Raqqosaning sevgisi» degan piesasi maydonga keladi.

1926-yilda Thokur Italiyaga boradi. U yerda Italiya muzofjirlari haqiqiy ahvolni so`zlab berganlaridan so`ng, Tarop «Manchester Gordian» gazetasiga xat bilan murojaat qilib, fashizmni qattiq qoralaydi. Shu yili u Shvetsariya, Germanaya, Skandinaviya, Bolqon, Misrga boradi. 1927-yilda esa Indoneziya va Tailandga sahar qiladi.

1928-1929-yillarda Thokurning «Uch avlod» romani bosilib chiqadi, bunda eski zamindor oqsuyaklar bilan yangi puldorlar orasidagi nizolar tasvir etiladi. «So`nggi doston» romanida esa «yangi avlod» vakillari ko`rsatiladi, ularning g`oyaviy shigalligi, qarama-qarshiligi oshib tashlanadi.

1929-yilda Thokur Kanadada leksiya o`qiydi. Los-Anjelos ma`murlari uni irqiy jihatdan qo`pol ravishda tafqir qilganlari sababli, yozuvchi

norozilik yuzasidan Amerikada leksiya o`qishdan butunlay bosh tortadi.

## **2. 2. Xususiy maktablar va universitetning ochilishi**

1930-yilda Thokur so`nggi marta saharga chiqadi: Angliyada Oksford universitetida leksiya o`qiydi, Amerika, Germaniya, Daniya, Fransiya, Shexoslavakiyada bo`lib, 1930-yilning sentyabrida sobiq ittifoqqaga keladi.

Sho`ro mamlakatni ko`rish Thokur dunyoqarashining kamol topishida muhim omillardan bo`ldi. Thokur madaniyat xodimlari, dehqonlar, studentlar, pionerlar bilan uchrashadi, maorif sistemasi, qishloq xo`jaligini idora qilish tartibi bilan qiziqsindi, maorif va madaniyat masalalariga alohida e`tibor qildi.

U bir nutqida: «Mening burchim tarbiyadir; kichilik jamiyati oldida turgan hamma muammolar asos e`tibori bilan tarbiya orqali fal etilishiga ishonaman»,- degan edn. Thokurning sho`ro kishilari bilan uchrashuvi g`oyat samimiy bo`ldi. 1930-yilning 17-sentyabrida Moskvada uning so`nggi davrda yaratgan suratlarining vistavkasi ham tashkil etildi.

Thokur sobiq ittifoqining sodiq do`sti bo`lib qoldi. Yangi uruch boshlash taraddudida bo`lgan imperialistik kuchlarga qarshi xalq nafrati oshgan sari, uruchning ashaddiy duchmani bo`lgan Thokurning sho`rolarga favasi ham, do`stona tuyg`ulari ham kuchaya boradi.

Thokurning ittifoqqa qilgan sahardan olgan taassurotlari uning «Rossiya haqida maktublar» kitobida ifoda topdi (bu kitob 1931-yilda birinchi marta bengal tilida «Probashi» jurnalida nashr etildi). Garchi uning ba`zi so`zlariga biz to`g`ridan-to`g`ri qo`shila olmasak ham, Thokur bu kitobda ittifoqidagi hayotni to`g`ri aks etdiradi va Angliya, Amerika imperializmini qattiq qoralaydi. «Rossiya haqida maktublar» kitobini ingliz tiliga tarjima qilish mustamlaka ma`murlari tomonidan man etilgan, uni ingliz tilida nashr eta boshlagan hind jurnali esa shtraf qilingan edi.

Thokurning siyosiy jihatdan o`tkir, haqqomiy kitobi quyidagi so`zlar bilan boshlanadi: «Nifoyat, mana men Rossiyaga keldim. Nima ko`rgan bo`lsam

hammasi ajoyib. Boshqa mamlakatlarga hech o`xshashi yo`q. Bullar hammaning ko`zini oshgan». Keyin Thokur «bilim olish, dam olish, hayotning hamma ne`matlari bu yerda mehnatkash xalqqa qaraydi», deb yozadi. Bir vaqtlar Rossiyaning uzoq burchaklarida yashagan qoloq xalqlarda madaniy saviyaning ravnaq topishi Thokurning shavqu zavqiga sabab bo`ladi: «Agar men bularning hammasini o`z ko`zim bilan ko`rmaganimda, ularning o`n yilga yaqin vaqt ishida yuz minglarsha kishini jafolat va tafqir botqog`idan tortib olganliklariga, ularning savodini shiqaribgina qo`ya qolmay, balki o`z qadr-qimmatiga ega bo`lish tuyg`usini singdira olganliklariga mutlaqo ishonmagan bo`lur edim».

Thokur sho`ro hukumatining tinichlik siyosatini to`g`ri anglagan edi. U sho`ro hukumatining- siyosati «yaxshi maorif sistemasini vujudga keltirish, xalqning moddiy harovonligi uchun zarur asos hozirlashga qaratilgan», deb yozgan edi.

«Rossiya haqida maktublar»ning ko`p sahifalari Hindistonda Britaniya fokimligining natijasi to`g`risida hikoya qiladi: Shu yerda u Hindistonda qashshoqlikning sababi ko`p tug`ilish, degan safsatani ham fosh etadi. Va, nihoyat, Hindistonda qishloq xo`jaligi sohasida islohot masalasini o`rtaga qo`yadi.

«Rossiya haqida maktublar» - shubhasiz Thokurning eng muhim publisistik asarlaridan biri bo`lib, Hindistonning taraqqiyparvar tabaqalari orasida imperializm va reaksiyaga qarshi kurashda jiddiy rol o`ynaydi.

### **2. 3.Darslik va qo`llanmalarning yaratilishi.**

1931-yilda Thokurning yetmish yoshga kirishi munosabati bilan uning sharafiga tantanali marosimlar o`tkazildi. Thokur, endi vatani doirasidan chetga chiqmaydi, ammo madaniyat va maorif sohasidagi faoliyatni tinmay davom ettiradi. Yangidan-yangi asarlar yozadi, bularning ko`pi Yozuvchining dunyoqarashidagi tadrijiy takomilni ko`rsatadi. Thokur mamlakatdagi hamma muhim voqealarga ko`z-quloq bo`lib, taraqqiyparvar fodisalarni yoqlab ovoz



beradi, fashizm va uruchga qarshi chiqadi.

1933-yilda Thokurning, «Egachi-singil» va «Malansho» qissalari maydonga keladi. 1934-yilda uning «To`rt qism» romani chiqadi. Bunda adib «svadeshlar» harakati fonida shaxs bilan jamiyat orasidagi qarama-qarchilik masalasiga tegib o`tadi. Thokur «Xotima» va «Uyg`onish» nomli she`r to`plamlarini nashr etadi (1931 yil), 1933 yilda «Shandalika» va «Pufak saltanat» nomli musiqali dramalarni nashr etadi.

Thokur bu davrda Hindistonni kezib chiqadi va yig`ilishlarda o`z universitetining ahamiyati haqida so`zlab, uni kengaytirish uchun mablag` to`playdi.

1936-yilda Thokur Hindistonda taraqqiyparvar yozuvchilar Assotsiatsiyasi tashkil etilishini qutlaydi, biroq notoblighi tuhayli uning ishiga bevosita qatnasha olmaydi. U Bengaliyaning taraqqiyparvar va ilg`or fikrlarini ifodalovshi adabiy-badiiy, ijtimoiy, siyosiy jurnali «Porishoy»ga faol ravishda qatnashadi. Shu yili Thokur tinshlikni himoya qiluvshilar jafon konferensiyasi murojaatiga imzo shekadi.

1930-yillarda Thokur bir qancha she`rlar yozib, hind adabiyotida yangi siyosiy lirikaga asos soldi. Bu janr hozirgi kunda tobora keng rivoj topmoqda. Siyosiy lirika janrining maydonga kelishiga Hindistonda milliy ozodlik harakatining kuchayishi katta ta`sir qildi.

Italiyaning Habashistonga hujumi munosabati bilan yozilgan «Afrika» she`ri (1936-yil) imperialist davlatlar tarafidan ezilgan Afrika xalqlarini himoya qilishga shaqiradi. Thokur Afrika to`g`risida yozib, «bu yerda ofu zorlar bo`g`ilib, so`qmoqlar qon va ko`z yoshidan nam bo`ldi» deydi. «Budda bandalari» she`rida Tarop Yaponiya imperialistlari tajovuziga duchor bo`lgan Xitoy xalqini himoya qilib chiqadi. 1938-yilda yozilgan «Prantik» she`rida fashizmni ko`zda tutib, xalqni yovvoyilarga qarsh» kurashga tayyorlanishga da`vat qiladi.

«Zahmatkashlar» she`rida («Sog`ayish» to`plamida, 1941-yil) Thokur «yuzlab podshofhiklar halokatini ko`rgan va hamma joyda: Panjob, Bombay va

Gujaratda mehnat qilayotgan» ko'p sonli oddiy odamlarga murojaat qiladi. «Birlik» she'ri ulug' yozuvchining yosh shoirlarga aytgan vasiyati bo'lib jaranglaydi:

*Men kutaman dehqon do'sti - yer shoirini,  
Toki so'zi ishi bilan bir bo'lsa doim;  
Bir maqsadga intilsa u mudom jo'sh urib.  
O, koshkiydi o'sha shoir menga shu zamon  
O'zimda yo'q tuyg'ularni qilolsa in'om...*

Bu ikki she'riy to'plamidan tashqari, Thokur bu davrda yana boshqa asarlar ham yozgan edi. 1940-yilda «Uch do'st» nomli hikoyalar to'plami, «Bolalik haqida» qissa, tabiatga oid ilmiy ommabop kitobi va bengal tili darsligi bosilib chiqadi.

1938-yilda Thokur yapon yozuvchisi Nogutiga o'zining mashhur maktubini yozib, unda puch xayol olamida yashovshi madaniyat arboblarni va «san'at - san'at uchun» nazariyasini tanqid qiladi. Fashizmga qarshi kurashga shaqiradi. Yozuvchining publisistik faoliyatining yakuni o'laroq «Ma'rifat bufroni» maydonga chiqadi. 1941-yilda chiqqan bu asar Britaniya imperializmiga qarshi qo'yilgan o'tkir aybnoma va norozilik sadosi edi. «Tarix tez vaqt ishida inglizlarni Hindistondan chiqib ketishga majbur etadi. Biroq ular o'zlaridan keyin nima qoldiradilar! Ularning ikki yuz yillik hukmronligi barbod bo'lgandan keyin ulardan balshiq va iflosliklargina qoladi!»

1941-yil may oyida butun yer yuzida shoirning sakson yillik yubileyi tantanali ravishda nishonlandi. Shantiniketonda maxsus bayram o'tkazildi.

Bu davrda adib bemor bo'lishiga qaramay, ishdan to'xtamagandi. U o'zining oxirgi she'rini 1941-yil 30-iyulda aytib yozdirdi.

Gitler Germaniyasining sobiq Ittifoqqa xoinona hujumidan keyin, Thokur og'ir kasal bo'lishiga qaramay, frontlardagi ahvol haqida o'qib berishni iltimos qilardi. Sho'ro Armiyasining vaqtinsha chekinayotganiga qaramay, Thokur «Baribir sho'rolar-g'alaba qiladi!» deb sho'ro xalqining fashizm ustidan g'alaba qozonishiga komil ishonsh bildirgan edi.

Robindranath Thokur 1941-yil 7-avgustda vafot etdi.

Thokurning ijodiy marosi juda katta. U 50 dan ortiq she`riy to`plami, 12 roman va qissa, 100 dan ortiq hikoya, 30 dan ortiq piesa, 2000 dan ortiq ashula, 200 tasha publisistik maqola, maktab darsliklari, til-adabiyot masalalari, Hindiston falsafasi va diniga oid ko`p ilmiy asarlar yozdi. Thokur asarlari yer yuzidagi hamma mamlakatlarda o`qiladi. Ular rus tilida qayta-qayta nashr eshilgan

Robindranath Tagop hind adabiyoti rivojida butun bir davrni tashkil etgan asarlar yaratdi. Uning asarlari yuqori lirik harorat bilan sug`orilgan, hayotbaxsh va jozibalidir. Thokur bengal adabiy tiliga jiddiy o`zgarish kiritib, uni jonli tilga yaqinlashtirdi. Thokur roman va hikoyalarida o`z davri voqeligini haqqoniy, yorqin va yuqori badiiy saviyada aks etdirdi. Otashin vatanparvar adib o`zining publisistik maqolalarida hind madaniyatini kamsitishga urinuvshilarga qarshi zo`r qat`iyat va matonat bilan kurash olib bordi, fashist tajovuzkorlarni la`natlab, irqiy kamsitishga qarshi o`t oshdi, tinshlik uchun faol kurashdi. Hozirgi zamon hind taraqqiyparvar adabiyoti Robindranath Thokur an`analarini davom ettirmoqda.

Dunyo xalqi Robindranath Thokur asarlarini yuksak baholaydi, uni o`zining do`sti deb biladi.

### III-bob. Robindranath Thokur ijodini ta'lim tazimida o'rganilishi.

#### 3.1. Robindranath Thokur ijodini o'rta umumta'lim tizimida o'rganish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Robindranath Thokurning "Nur va soyalar" hikoyasini o'rganish bo'yicha 1 soatlik Dars ishlanmasi.

Amaldagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinflari uchun mo'ljallangan Adabiyot darsligida Robindranath Thokurning "Nur va soyalar" hikoyasini o'rganish rejalashtirilgan.<sup>9</sup> Bu hikoyani o'rganish uchun jami 3 soat vaqt ajratilgan.

Mavzu: Robindranath Thokurning "Nur va soyalar" hikoyasini o'rganish

Ushbu dars ishlanmasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan adabiyot darslarida foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: Jo'rayeva Dilnoza

Muharrir: Mo'minjon Sulaymonov – Namangan davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti filologiya  
fanlari nomzodi

DARS TAQSIMOTI	
Dars qismlari	Belgilangan vaqt taqsimoti
1.Tashkiliy qism	2 minut
2.O'tilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar	2 minut
3. I Shart	4 minut
4. II Shart	4 minut
5. III Shart	5 minut
6. IV Shart	5 minut
7. Yangi mavzu: Robindranath	15 minut

Thokurning “Nur va soyalar” hikoyasini o’rganish	
8. Mustahkamlash	2 minut
9. O’rganilgan mavzu asosida tezkor savollar tuzish	5 minut
10. Uyga vazifa berish	1 minut

**Mavzu:** Robindranath Thokurning “Nur va soyalar” hikoyasini o’rganish

**Darsning maqsadi:**

- A) Ta’limiy:**
1. DTS talablariga qo’yilgan bilim, ko’nikma va malakalarni o’quvchilarga keng ko’lamli tarzda yetkazish.
  2. O’quvchilarning adabiyot fani yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.
  3. Robindranath Thokur hayoti va ijodi bo’yicha olgan bilimlarini yanada takomillashtirish.
  4. O’quvchilarga Robindranath Thokurning “Nur va soyalar” hikoyasini o’rganish
  5. O’quvchilarga adabiyot bu hayot darsligi ekanligini tushuntirish.
- B) Tarbiyaviy:**
1. O’quvchilarning og’zaki nutqlarini o’stirishda adabiyotning roli haqida tushuntirish.
  2. Robindranath Thokur she’rlaridan o’rgatish
  3. Robindranath Thokurning “Nur va soyalar” hikoyasini o’rganish
- D) Rivojlantiruvchi:**
1. O’quvchilarni badiiy adabiyotga bo’lgan qiziqishlarini yanada ottirish
  2. O’quvchilarning mustaqil o’qish, ishlash malakalarini takomillashtirish.
  3. O’quvchilardagi qobiliyat, fikrlash kabi ko’nikmalarni rivojlantirish.
  4. Badiiy adabiyotga mehr uyg’otish.

**Darsning jihozi:** Robindranath Thokur rasmi, uning kitoblaridan yig'ma, turli xil ko'rgazmali rasmlar, tarqatma materiallar, texnika vositasi slaydlar, rangli rasmlar, rag'bat kartochkalari .

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** Og'zaki, bahs – munozara, yozma, «Aqliy hujum», “Klaster”, musobaqa.

## DARSNING BORISHI

### I. Tashkiliy qism.

**O'qituvchi:** Assalom-u alaykum, aziz bolajonlar,  
Adabiyot darsiga tayyormi, bilimdonlar.

**O'quvchilar:** Va-alaykum assalom, mehribon ustoz.

**O'quvchi:** Har kun tong otgan mahal,  
Jo'naymiz maktab tomon.  
Ilm olishdir xijjalab kunda,  
Maqsad tomon yetaklar bunda.

**O'qituvchi:** Rahmat aziz bolalar, o'tiringlar marhamat. O'quvchilar hozir darsimiz ?

**Hamma:** Hayot darsligidan olib tarbiya,  
Har bir daqiqa beradi hadya.

**Bizning shior:** «Ilm cho'qqilarin zabt etib har dam  
Kelajak sari borurmiz shaxdam ».

### II. O'tgan mavzuni so'rash va mustahkamlash.

**O'qituvchi:** Demak, har birimiz adabiyot shaydosi bo'lishimiz kerak ekan. Adabiyot – hayot ko'zgusi deb bejiz aytilmagan. Adabiyotni sevish, ardoqlash o'zligimizni sevish, anglash demakdir. Biz adabiyotimizning turli sohalarida qalam tebratayotgan shoir va yozuvchilarimizdan ko'plarini taniymiz. Ularning yozgan asarlaridan bahramand bo'lamiz. Sharq xalqlari adabiyoti, jumladan, Hind adabiyoti namunalari ruhan va mazmunan bizning xalqimizga yaqin turadi. Bu o'rinda mashhur Hind adibi Robindranath Thokur nomini alohida eslash joizdir. Robindranath Thokur ijodi o'tgan XX asrda xalqimizning eng sevib o'qiladigan

kitoblariga aylanib qolgan edi. Bir necha mahoratli tarjimonlarning fidokorona mehnati tufayli Robindranath Thokur asarlari o`zbek tiliga tarjima qilingan, hamda sakkiz jild holida chop etilgan.

O`zbek kitobxonlari adib Robindranath Thokurning deyarli hamma mashhur asarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`lganlar. Shunisi ham diqqatga sazovorki, Robindranath Thokurning “Halokat” romani asosida o`zbek kino ustalari “Gang daryosining qizi” nomli badiiy filmni ishlaganlar.

Aytish mumkinki, chet ellik boshqa bir yozuvchining asarlari 8 jildlik holida chop etilmagan edi. Hind adabiyoti, xususan olganda, Robindranath Thokur adabiy merosi xalqimiz qalbiga juda ham yaqinligini yuqoridagi fikrlardan ham bilib olishimiz mumkin.

Mashhur adib sifatida jahon adabiyotining taraqqiyotiga munosib hissa qo`shgan Robindranath Thokurning ko`plab asarlari Hind va Bengal xalqlarining ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik kurashini tasvirlashga bag`ishlanganligi bilan xarakterlidir. Mana shu jihatlari ulug` adib asarlarini o`zbek kitobxonlari o`rtasida keng ommalashishiga ham sabab bo`lgan.

(Ektranda Robindranath Thokur rasmi hamda unung kitoblaridan manunalar namoyish etiladi.)

**O`qituvchi:** O`quvchilar hozir biz sizlar o`tilgan mavzu yuzasidan savollarga javob beramiz.Darsimizda kichik guruhlarda ishlaymiz. Har bir guruhlarga nom beramiz hamda ana shu berilgan nomlarni izohlaymiz.

**1-guruh: Zukko      2-guruh: Bilimdon      3-guruh: Topqir**

Qani o`quvchilar, har bir guruh a`zolari o`zining guruhiga berilgan nomga she`r to`qiy olish qobiliyatini ko`ramiz. Har bir guruh o`quvchilariga to`g`ri yoki noto`g`ri javoblariga asoslanib, rag`bat kartochkalari bilan baholab boriladi. To`rtta shartga javoblar uchun to`rt minutdan vaqt ajratiladi.

**II. O`tilgan mavzular yuzasidan savol – javoblar**

**I SHART      (Aqliy hujum. Namoyish etish usulidan foydalanib, yozgan kichik she`rlarini yozuv taxtasiga yopishtirib qo`yiladi. )**

**1-guruh: Zukko**

Zukkolar olib ilm

Bo'lishar eng zo'r olim.

## **2-guruh: Bilimdon**

Bilimdonlar birlashib

To'siqni yengamiz birlashib.

## **3-guruh: Topqir**

Topqirlar asta birlashib

Jumboqni yechar sirlashib.

( Eslatma: Rag'bat kartochkalari berib boriladi.)

### **II SHART (Test usulida, 4 minut)**

1-guruhga:

1. Qachon va qayerda tug'ildi?  
-1861-yil 7-mayda Kalkutta **shahrida**
2. Oilada nechanchi farzand edi?  
**-14**
3. Necha yoshida she'r yozishni boshlaydi?  
**-8**
4. Dastlabki savodni qayerda olgan?  
**-uyida**
5. Keyinchalik qayerlarda o`qidi?  
**-xususiy maktabda, Kalkuttadagi seminariyada, Bengaliya akademiyamiasida (tarix va madaniyatdan)**
6. 1878-1880-yillarda qayerda o`qishga kiradi?  
**-London universitetining kollejiga**
7. Dastlabki she'r, doston va maqolalar qayerda e'lon qilinadi?  
**-Angliyadagi jurnallarda**
8. Ilk she'riy to`plami  
**-“Oqshom qo`shiqlari” (1882)**



9. Qaysi asarlarida pok insoniy munosabatlar ulug'lanadi?

-**“Tonggi qo`shiqlar”, “Suratlar va qo`shiqlar”**

10. Mustamlakachilik zulmi va ijtimoiy adolatsizliklar qoralangan asarlari

-**“Bibha sohili”, “Donishmand Roja”**

2-guruhga:

1. Tarixiy romanlari

-**“Bibha sohili”, “Donishmand Roja”**

2. Thokur asosan qaysi tilda ijod qilgan?

-**bengal**

3. She'riy to`plamlari

-**“Chitra”, “Lahza”**

4. Falsafiy dramalari

-**“Roja va Rani”, “Qurbonlik”, “Chitrangoda”, “Malini”**

5. Qaysi hikoyalari o`zbek tiliga tarjima qilingan?

-**“Hisob-kitob”, “Jazo”, “Nur va soyalar”**

6. U 1912-yilda qaysi asarini ingliz tiliga tarjima qiladi?

-**“Gitanjali” she'rlar to`plamini**

7. 1913-yilda qaysi asari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo`ladi?

-**“Gitanjali” she'rlar to`plami uchun**

8. Mukofot pulini nima qiladi?

-**bepul maktab ochadi**

9. Bu maktabning taqdiri...

-**birinchi jahon urushidan so`ng bepul o`qitiladigan universitetga aylantiriladi**

**10. Hindiston Respublikasining milliy madhiyasi muallifi?**

-**Thokur**

**3-guruh:**

1. Uning qaysi qo`shig'i milliy madhiyaga aylangan?

-**“Xalq qalbi”**

2. Uning qaysi qo`shig'i Bangladesh xalq Respublikasi madhiyasiga aylangan?

-**“Mening oltin Bengaliyam (1913)**

3. O`zbek tiliga neycha jildlik tanlangan asarlar to`plami tarjima qilingan?

**-8**

4. Qaysi kitoblari o`zbek tiliga o`girilgan?

**“Nur va soyalar”, “Ko`zga tushgan cho`p”**

5. Hamza nomli akademik teatr (hozirgi Milliy teatr)da o`ynalgan asarlari?

**-“Pochta”, “Gang daryosining qizi”**

6. “Gang daryosining qizi” dramasi qaysi roman asosida tayyorlangan?

**-“Halokat”**

7. 1961-yilda “O`zbekfilm” kinostudiyasida qanday badiiy film yaratilgan?

**-“Gang daryosining qizi”**

**“NUR VA SOYALAR”**

8. “Nur va soyalar” janri

**-hikoya**

9. Qaysi davr aks ettirilgan ?

**-o`tgan asrning boshlari**

10. Qaysi kitoblari o`zbek tiliga o`girilgan?

**“Nur va soyalar”, “Ko`zga tushgan cho`p”**

**1-guruhga:**

**III SHART (Klaster usulida bajaradilar, 6 minutda)**

1-guruh: Robindranath Thokur asarlari nomlaridan to`ldiring?

“Halokat”, “Donishmand Roja”, .....

2-guruh: Robindranath Thokur kim?

Nobel mukofotining laureati, .....

3- guruh: Robindranath Thokur ijodi davomida nimalar yozgan?

She`r, .....

**IV SHART (Shartda: 5 minut vaqt beriladi, guruhlar aro ”Kim tez va to`g`ri topadi? deb nomlangan musobaqa tashkil etiladi.**

1-guruh: 1. Robindranath Thokurning 1882- yilda e`lon qilingan birinchi she`riy to`plami nomi? (“Oqshom qo`shiqlari”)

2- guruh: 1. Robindranath Thokurning tarixiy romanlari nomini ayting?

( "Bibha sohili", "Donishmand Roja")

3 – guruh: 1. Robindranath Thokur o'zining qaysi asarini qachon boshqa tilga tarjima qiladi?

( "Gitanjali" she'rlar to'plamini 1912-yilda)

( Eslatma: Rag'bat kartochkalari berib boriladi.)

### III. Yangi mavzuning bayoni.

**Mavzu:** Robindranath Thokur asarlarini o'rganish .

Thokurning hikoyalari uning eng yaxshi asarlari jumlasidandir. Bu hikoyalar oddiy odamlarning g'am-kulfatlariga hamdardlik, xayrixohlik, ingliz mustamlakalariga, katta mansabdorlarga, politsiyaga, zamindorlarga, zolimlarga va boshqa turli-tuman tama'gar va manfaatparastlarga, munofiqlik va zo'ravonlikka qarshi nafrat hislari bilan to'lgandir. Thokur insonni ruhan ezadigan foydaparastlik, nokaslik hirsini qoralaydi. Shu bilan birga Thokur o'rta asr feodal qoldiqlarini, ayniqsa, toifaviy bo'linishlarni qattiq va rahmsiz masxaralaydi, Braxman-kohinlarni, tarki dunyochilik va soxta taqvodorliklarni fosh etadi. Bu xurofotlar iskanjasida hammadan ko'proq azob tortgan hind xotin-qizlari taqdiriga Tarop alohida e'tibor beradi. U birinchi dafa o'z hikoyalarida xalq ommasini ko'rsatadi, «kishik odamni» o'z asarlarining ijobiy qahramoni qilib oladi, ularni sofdil, oliyjanob, insonparvar va o'z burchiga sodiq qilib tasvir etadi.

Masalan, 1891-yilda yozgan «Hisob-kitob» hikoyasida Thokur mustamlaka Hindistonda pul hukmronligini zo'r kuch bilan ochib beradi. Adib bu hikoyasida qalin baravariga erga berilgan yosh qizning fojiali taqdirini hikoya qiladi.

Halol, to'g'ri odamning muttaham va tama'garlarga qarshi kurashi «Beaql Ramkanai» (1891-yil) hikoyasida juda yorqin ifoda etilgan. «Meros» (1891-yil) hikoyasining qahramoni - xasis chol kamoli baxilligidan aqldan ozib, mol-dunyomni abadiy asrasin, deb sevimli nabirasini tiriklay oltinlari bilan ko'mib tashlaydi. «Yechilgan topishmoq» (1893-yil) hikoyasi zamindorlarning dehqonlarni shafqatsiz xo'rlashini ko'rsatadi.

Eng yaxshi hikoyalardan biri “**Nur va soylar**”da (1894-yil) yozuvchi ingliz mustamlakachilarining zo`ravonligi, hind amaldorlarining ularga qullarcha tiz cho`kishi, dehqonlar va mayda savdogarlarning qo`rqoqligi, shijoatsizligi haqida g`azab bilan gapiradi. Hikoyaning ijobiy qahramoni Shoshibushon ismli yosh ziyolidir. U oddiy odamlarning tarafini olib, hind savdogarlari tushib kelayotgan barkas-kemani suvga cho`ktirgani uchun bir inglizni sudga beradi. Biroq hindlar ingliz sohib bilan sudlashishga botinmaydilar. Yigitning bechoralar tarafini olishga urinishining oqibati, baliqchilarning hayot manbai bo`lgan qimmat baho to`rlarini qirqqan ingliz amaldorini urib, o`zining turmaga tushishi bilan tugaydi.

Thokurning go`zal hikoyalardan biri «Moxamayya» (1893-yil) xotinlarning o`z-o`zini kuydirishi kabi yovvoyi odatni fosh qilishga bag`ishlangan.

Uning ko`p asarlarida xotin-qizlarning dilbar obrazlarini ko`ramiz. Yozuvchi bularni hamisha muhabbat va zo`r xayrixohlik bilan tasvir etib, o`quvchining diqqatini hind jamiyatida xotinlar ahvoliga, tul xotinlarning fojiali taqdiriga jalb etadi.

Thokur hikoyalari feodalizm va mustamlakachilikka qarshi qaratilgani shubhasizdir. Garchi bu hikoyalar ro`y-rost kurashga chaqirmasa ham, ularning obektiv mohiyati shunga targ`ib qilishdir.

Thokur hikoyalarining muhim fazilatlaridan biri yana shundaki, yozuvchi xalqning yuksak ma`naviy qiyofasini haqqoniy va ishonarli qilib ochib beradi, uning kundalik og`ir va qorong`i hayotini ko`rsatadi. U oddiy odamlarni zo`r muhabbat bilan tasvir etib, boylarning koshonasidan ko`ra kambag`allarning kulbasida insoniylik ko`proq ekaniga o`quvchini ishontiradi («Beaql Ramkanai», «Tuzalmas baxtsizlik», «Hisob-kitob» va boshqa hikoyalar).

Hikoyalarda Thokur o`zini psixologik tahlillar ustasi va kishi qalbining nozik bilarmoni sifatida ko`rsatdi.

Thokur istifoda qilgan tasvir vositalari g`oyat rang-barang. Ayniqsa, tabiat manzaralari unga juda qo`l kelib, biror obraz va kayfiyatni yaratmoq uchun fon vazifasini bajaradi. Robindranath Thokurning ko`p hikoyalari yengil

yumor, ixshamlik, kompozitsiyasining o'ziga xosligi, syujetining jo'shqinligi va rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi.

Thokur hikoyalarining tili jonli tilga yaqindir. Hikoyalar bilan bir qatorda Thokur dramalar, she'r kitoblari va bir qancha maqolalar yozadi.

(Ekkranda uning hikoyalari slaydlar orqali namoyish etiladi. Fikr bildirgan o'quvchilarga rag'bat kartochkalari beriladi.)

#### **IV. Mustahkamlash**

**Biz sizlar bilan birgalikda darsimizni mustahkamlash uchun tezkor savollarga murojaat etamiz. Qaysi guruh o'quvchisi oldin qo'l ko'tarsa , javob beradi. (Rag'batlar berib boriladi.)**

1. Hamza nomli akademik teatr (hozirgi Milliy teatr)da o'ynalgan asarlari?  
**-“Pochta”, “Gang daryosining qizi”**
2. “Gang daryosining qizi” dramasi qaysi roman asosida tayyorlangan?  
**-“Halokat”**
3. 1961-yilda “O'zbekfilm” kinostudiyasida qanday badiiy film yaratilgan?  
**-“Gang daryosining qizi”**  
**“NUR VA SOYALAR”**
4. “Nur va soyalar” janri  
**-hikoya**
5. Qaysi davr aks ettirilgan ?  
**-o'tgan asrning boshlari**
6. Asar qahramoni  
**-Shoshibushon**
7. O'qimishli, kamsuqum, dilkash yigit...  
**-Shoshibushon**
8. Shoshibushon nimaga o'qigan?  
**-Advokatlikka**
9. Shoshibushon biror bir tayinli ish qilishdan ko'ra, nimani afzal ko'radi?  
**-yolg'izlikda kitob mutoalasi bilan shug'ullanishni**

10. Shoshibushon "... osoyishtalik, tinchlikni yaxshi ko`rardi, shuning uchun ... xohlamasdi"

**-uylanishni ham**

### **V. Darsni yakunlash**

Guruhlar orasida rag'bat kartochkalar hisoblab chiqilib, g'olib guruh aniqlanadi va ular orasidan yana eng ko'p rag'bat to'plagan o'quvchiga rag'bat topshiriladi. O'quvchilar baholanadi, rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa.** "Nur va soyalar" hikoyasini o'qib, 10 ta test tuzish.

## Umumiy xulosalar

Robindranath Thokur asarlari o'zbek tiliga o'tgan XX asrdayoq 8 jildlik "Asarlari" tarjima qilinib hashr etilgan edi. Kitobxon xalqimiz Thokur asarlarini sevib o'qiydilar va hozir ham o'qimoqdalar. Hatto adibning "Halokat" romani asosida o'zbektelefilm xodimlari tomonidan "Gang daryosining qizi" nomli badiiy film suratga olingan va katta muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan.

Robindranath Thokur kabi Hindiston va Bengaliya adabiyotini, madaniyatini hamda san'atini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan boshqa biror bir adibni uchratish mushkul. Chunki, Robindranath Thokur har ikkala mamlakat davlat madhiyasini yozgan shoir sifatida ma'lum va mashhurdir. Robindranath Thokur boy – badavlat oilada tug'ilib o'sgan, voyaga yetgan. U juda yaxshi bilim olgan. Oilada savod chiqargan. Ingliz tilini mukammal o'rganadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlariga, jumladan, Angliyaga ham sayohat qiladi. Avvallari asarlarini hind va bengal tillarida ijod qiladi. Keyin she'rlarini o'zi ingliz tiliga o'giradi va chop ettiradi. Mazkur bitiruv – malakaviy ishning natijalarini quyidagi umumiy xulosalarda bayon qilish mumkin:

- Prezidentimiz Islom Karimov doimo adabiyotimiz rivojiga homiylik va g'amxo'rlik qilib kelmoqda;
- I. Karimov asarlarida tarjima adabiyotini ham rivojlantirish rivojlantirish masalasi haqida fikr yuritilgan:
- Robindranath Thokur Hindistonda juda ko'p ishlarni amalga oshirgan, avvalo hind adabiyotini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan;
- Robindranath Thokur Hindiston va Bengaliya davlat madhiyasini yozgan;
- Robindranath Thokur hisobidan yangi usuldagi maktablar tashkil qilgan. Kambag'al oilalarning farzandlarini o'qita boshlagan.
- Robindranath Thokur o'zi asos solgan maktablar uchun darsliklar ham yozub, chop ettirgan.

- Robindranath Thokur avval she'rlar keyinroq nasriy va dramatic asarlar yozadi. U o'z asarlarida hind xalqining turmush tarzini badiiy aks ettirdi;

Adib, avvalo, o'z asarlarida hind xalqi orasida keng tarqalgan bidatlarni bartaraf etishga qaratilgan edi. Yozuvchi sifatida hind xalqi hayotiga xos qashshoqlik sababi savodsizlik ekanligini badiiy tasvirlagan;

Robindranath Thokur Hindistonning ingliz mustamlakachilari tomonidan iste'lo qilinganligi nohaqlik ekanligini o'z asarlarida badiiy timsollar orqali aks ettirishga uringan;

- Robindranath Thokurning asarlarida hind xalqi mustaqilligini orzu qilgan qahramonlarni ko'ramiz;

- Adibning "Nur va soyalar" asarida Hindiston mustaqilligi g'oyalari bilan sug'orilganligi uchun xarakterlidir.

Shohibushonning mustamlakachilarga qarshi norozilik bildirishini mahalliy xalq vakillari, jumladan, amaldor Xorkumar ham tushunmaydi. Natijada Shohibushon qamoqqa tushadi.

Hindiston mustaqilligini ko'rish Robindranath Thokurga nasib etmadi, ammo uning g'oyalari amalgam oshdi.

Robindranath Thokur asarlarini ta'lim tizimida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'rganish katta ahamiyatga ega;

Amaldagi 8- sinflarning adabiyot darsligida va dasturida Robindranath Thokur hayoti va ijodiy faoliyati hamda "Nur va soyalar" hikoyasini o'rganish rejalashtirilgan. Bu mavzularni yangi pedagogik texnologiyalar asosida, noan'anaviy usullar yordamida o'rganish ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim omil bo'ladi.

Robindranath Thokur asarlarida ifodalangan ezgu g'oyalar har doim dolzarb bo'lib kelgan va bundan keyin ham dolzarb bo'lib qoladi.

Qisqa qilib aytganda, ushbu bitiruv – malakaviy ish xulosalaridan hind adabiyotini, xususan, Robindranath Thokur ijodini o'rganishga oid mashg'ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

### **1. Siyosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida – Toshkent O`zbekiston, 1997. 327 bet.
2. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent.: O`zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi – Toshkent.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2000.
4. Karimov I.A. Milliy istiqloq g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. – Toshkent.: O`zbekiston, 2001.
5. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – Toshkent.: Sharq, 1998.
6. Karimov.I.A. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor . – Toshkent.: O`zbekiston, 2009.
7. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma`naviyat, 2009. 173 b.

### **II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar:**

1. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. – Toshkent. 1991.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: O`zbekiston. 2002.
3. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent.: Fan. 1995. 105 b.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent.: O`qituvchi, 1989.
5. Kenja Qamchibek. Buyuklar izidan. – Toshkent.: Sharq, 2006.
6. Normatov U. Yetuklik – Toshkent.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1982.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish – Toshkent.: Fan. 2007. 227-bet
8. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – Toshkent.: Sharq, 2007.
9. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 262 b.
10. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Sharq, 2008

### **III. Badiiy adabiyotlar:**

1. Olim S. Ahmedov S. Qo`chqorov R. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, “O`zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent- 2010
2. Boynazarov F. Jahon adabiyoti: Oliy o`quv yurtlari uchun o`quv qo`llanma. O`z.

R Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,-T.: "Musiq", 2006,-160b.

3. Рабиндранат Тагор асарлар, саккиз томлик. Биринчи том. ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, Тошкент-1958.
4. Рабиндранат Тагор асарлар, саккиз томлик. Учинчи том. ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, Тошкент-1961.
5. Рабиндранат Тагор асарлар, Хонадон ва жаҳон, саккиз томлик. учинчи том. ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, Тошкент-1961.
6. Рабиндранат Тагор асарлар, Сўнгги дoston, саккиз томлик. учинчи том. ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, Тошкент-1961.
7. Рабиндранат Тагор асарлар, саккиз томлик. тўртинчи том. ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, Тошкент-1962.
8. Рабиндранат Тагор, "Бибха соҳили", "Донишманд Рожа", Романлар, Тошкент. Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1984.

#### **IV. INTERNET MA'LUMOTLARI:**

- 4.1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 4.2. <http://www.natlib.uz/>
- 4.3. <http://kutubxona.uz/>
- 4.4. <http://www.adabiyot.uz/>
- 4.5. <http://www.literature.uz/>